

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIY MEROS AGENTLIGI
Y. G‘ULOMOV NOMIDAGI SAMARQAND ARXELOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.01/10.01.2024.TAR.169.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TO‘XTASINOV DILSHOD INOMJON O‘G‘LI

**UCHTEPA-BULOQMOZOR MAJMUASI: UCHTEPA-2 ARXEOLOGIK
YODGORLIGINING TARIXIY TOPOGRAFIYASI VA
STRATIGRAFIYASI**

07.00.06 – Arxeologiya (tarix fanlari)

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

| | |
|--|----|
| To‘xtasinov Dilshod Inomjon o‘g‘li Uchtepa-Buloqmozor majmuasi: Uchtepa-2 arxeologik yodgorligining tarixiy topografiyasi va stratografiyasi..... | 3 |
| Тухтасинов Дилшод Иномжон угли Учтепа-Булакмазарский комплекс: историческая топография и стратиграфия археологического памятника Учтепа-2 | 29 |
| Toxtasinov Dilshod Inomjon ogli Uchtepa-Bulakmazar complex: historical topography and stratigraphy of the archaeological site Uchtepa-2 | 57 |
| E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works | 61 |

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIY MEROS AGENTLIGI
Y. G‘ULOMOV NOMIDAGI SAMARQAND ARXELOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 01/10.01.2024. TAR. 169. 01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TO‘XTASINOV DILSHOD INOMJON O‘G‘LI

**UCHTEPA-BULOQMOZOR MAJMUASI: UCHTEPA-2 ARXEOLOGIK
YODGORLIGINING TARIXIY TOPOGRAFIYASI VA
STRATIGRAFIYASI**

07.00.06 – Arxeologiya (tarix fanlari)

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Tar 1502 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (rus, o‘zbek, ingliz (resume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.archaeology.uz) hamda “ZiyoNET” axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Asqarov Ahmadali Asqarovich**
tarix fanlari doktori, professor, akademik

Rasmiy opponenlar: **Raimqulov Abdusabir Azzamovich**
tarix fanlari doktori (DSc)

Qudratov Solijon Sulaymonovich
tarix fanlari nomzodi

Yetakchi tashkilot: **Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Y. G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/10.01.2024.Tar.169.01. raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” ___ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140151, Samarqand shahri, Vohid Abdullayev ko‘chasi 3-uy). Tel./faks: (99866) 232-27-75).

Dissertatsiya bilan Y. G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti Axborot - resurs markazida tanishish mumkin (- raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 140151, Samarqand shahri, Vohid Abdullayev ko‘chasi, 3-uy). Tel./faks: (99866) 232-27-75).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “___” _____ dagi “___” raqamli reestr bayonnomasi).

T. Sh. Shirinov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

A. N. Xolmatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.f.d (PhD)

B. X. Matboboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari ilm-fan insoniyat rivojining bosh omili ekanligini yana bir bor isbotlamoqda. Dunyoda tarixiy-madaniy meros yodgorliklarini saqlash va ularni kelajak avlodga yetkazish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada YuNESKO, IKOMOS (Yodgorliklar va diqqatga sazovor joylarni saqlash bo'yicha Xalqaro kengash), IKOM (Xalqaro Muzeylar kengashi) kabi nufuzli tashkilotlar faoliyatini alohida qayd etish maqsadga muvofiq. Hozirgi kunda jahon miqyosida tarixiy-madaniy yodgorliklarni o'rganish, konservatsiya va restovratsiya qilish, sayyohlik maqsadida foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy arxeologiyada yangi tadqiqot usullari muhim o'rin egallab, yodgorlik sathini skanerlash (GeoRadar), koinot va yer ustidan olingan fotosuratlar, yuqori aniqlikdagi raqamli o'lchov uskunalari yordamida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Markaziy Osiyo tarixning barcha davrlariga oid turli madaniyatlar shakllangan va keng tarqalgan eng boy hududlaridan biridir. Ushbu hudud tarixi borasida izlanishlar olib borayotgan nufuzli ilmiy markazlarda antik, ilk o'rta asrlar tarixi, moddiy madaniyati bilan birgalikda tarixiy madaniy hududlar va ulardagi shahar hamda qishloq makonlarning tarixiy topografiyasini aniqlashga katta e'tibor berilmoqda. Bunda albatta, arxeologik va yozma manbalarni qiyosiy tahlil qilish, shu bilan birga, zamonaviy tadqiqot usullari, jumladan, GAT¹ni qo'llash, hududlarning chegaralari, shahar va qishloqlarning lokalizatsiyasi kabi muammolarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida arxeologik tadqiqotlarni tubdan yaxshilash, ilmiy tadqiqot usullari va uslublarini takomillashtirish, xalqimizning ko'p asrlik boy moddiy hamda madaniy merosini asrab-avaylash, qadimiy moddiy madaniyatni tabiiy fanlarning zamonaviy tadqiqot uslublari yordamida o'rganish va arxeologik izlanishlarga keng joriy qilish borasida ko'plab amaliy ishlar bajarildi. Farg'ona vodiysining shimoliy-sharqiy hududi hisoblangan Norin va Qoradaryo oralig'i² ham Markaziy Osiyoda umuminsoniy qadriyatlar rivojiga ulkan hissa qo'shgan qadimiy tamaddun o'choqlaridan biri bo'lib, uning taraqqiyoti mintaqa xalqlari o'tmishi bilan bog'liq holda kechgan. Shundan kelib chiqqan holda Norin va Qoradaryo oralig'i markazlaridan biri hisoblangan Uchtepa-Buloqmozor arxeologik majmuasi tarkibidagi Uchtepa-2 yodgorligi tarixiy topografiyasi hamda stratigrafiyasi, moddiy madaniyati, madaniy hayoti masalalarini ko'rsatib berish tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2018-yil 16-yanvardagi 5181-sonli "Moddiy,

¹ Geografik axborot tizimi – bu asosiy vazifalari tabiat va jamiyat hodisalarining geofazoviy ma'lumotlarini maxsus vositalar yordamida to'plash, saqlash, boshqarish, tahlil qilish, modellashtirish va tasvirlashdan iborat bo'lgan mutaxassis va tahlilchilar boshqaruvi ostidagi umumlashgan dasturiy tizim.

² Tarixiy manbalarda ushbu zaminni ilk bor tilga olgan arab muarrixlaridan Istaxriy "Miyon Ruzan", Muqaddasiy esa "Miyonrudiyaa" deb yozadi. Arab tarixchi va geografllari asarlarini originalda o'qigan hamda tahlil etgan buyuk sharqshunos V. V. Bartold "Miyon-Rudan" deb yozadi. Ushbu tadqiqotda V. V. Bartold izidan borib, ushbu geografik atamani biz ham Miyon-Rudan, ya'ni o'zbekcha talaffuzda "Miyon-Rudon" deb yozishni ma'qul deb topdik.

madaniy va arxeologiya merosi ob'yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to'g'risida"gi, 2020-yil 29-oktyabrdagi 6097-sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi 2789-sonli "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 19-dekabrdagi 4068-sonli "Moddiy-madaniy meros ob'yektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 21-sentyabrdagi 792-sonli "Arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-avgustdagi 485-sonli "Y. G'ulomov nomidagi Samarqand Arxeologiya instituti va uning Buxoro filiali faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi qarorlarida³ belgilangan tegishli fan va ta'lim sohalariga oid vazifalarni amalga oshirish, moddiy, madaniy hamda arxeologiya merosi ob'yektlarini ilmiy o'rganish, muhofaza qilish va targ'ib etishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bugungi kunda xorijning yetakchi ilmiy markazlarida Markaziy Osiyo tarixi va arxeologiyasini o'rganishga qaratilgan maxsus loyihalar ustida ish olib borilayotganligi tufayli mintaqa xalqlari tarixi hamda madaniyatiga doir ko'plab ilmiy yutuqlarga erishilmoqda. Shunga qaramasdan, Farg'ona vodiysi hududlari, jumladan, Norin va Qoradaryo oralig'i – Miyon Rudon o'lkasining qadimgi madaniyati hozirga qadar to'la-to'kis yoritilmay qolmoqda.

Farg'ona vodiysining shimoli-sharqiy hududlari arxeologik yodgorliklari to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar N. I. Veselovskiy⁴ va I. A. Kastane⁵larning izlanishlari orqali ma'lum. Keyingi tadqiqotlar 1930–1934-yillarda Norin daryosida

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/4751561>; 2020-yil 29-oktyabrdagi 6097-sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/5073447>; 2017-yil 17-fevraldagi "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // <https://lex.uz/docs/3117025>? ONDATE= 18.02.2017% 2000; 2018-yil 19-dekabrdagi "Moddiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // <https://lex.uz/docs/4113465>; 2018-yil 16-yanvardagi "Moddiy-madaniy va arxeologiya merosi ob'yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/3506332>; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-fevraldagi "Axsikent arxeologiya merosi ob'yektini muhofaza qilish va tadqiq etish yodgorlik majmuasini tashkil qilish to'g'risida"gi Qarori // <https://lex.uz/docs/3382160>; 2019-yil 21-sentyabrdagi 792-sonli "Arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori // <https://lex.uz/docs/4524476>; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-avgustdagi "Y. G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti va uning Buxoro filiali faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 485-sonli Qarori // <https://lex.uz/docs/6180572>.

⁴ Лунин Б. В. Средняя Азия в научном наследии отечественного востоковедения. – Ташкент, 1979. – С. 47.

⁵ Кастане И. А. Краткое сообщение о поездке к развалинам Ахсикета и в горы для осмотра построек, известных под именем хана-и-муг / Протоколы Туркестанского кружка любителей археологии, XVIII (1912–1913); протокол № 4 от 30 апреля 1913 г.

GES qurilishi boshlanishi natijasida B. A. Latinin⁶ boshchiligidagi yirik arxeologik ekspeditsiya faoliyati bilan bog‘liq.

Mintaqaning turli davrlarga oid arxeologik yodgorliklari bo‘yicha ma’lumotlar M. Y. Masson⁷, T. G. Obolduyeva⁸, A. N. Bernshtam⁹, M. Y. Vorones¹⁰, V. I. Sprishevskiy¹¹, S. S. Sorokin¹², Y. A. Zadneprovskiy¹³, Y. G. Chulanov¹⁴ va N. G. Gorbunova¹⁵larning tadqiqotlarida keng yoritilgan.

Vodiyning qadimiy arxeologik madaniyatlari XX asrning 60-yillaridayoq deyarli aniqlab bo‘lingan. Biroq, Farg‘onaning qadimgi va o‘rta asrlar davri madaniyatlarini davrlashtirish hamda ularning izchil rivojlanish bosqichlari har bir tadqiqotchi tomonidan o‘ziga xos tarzda shakllantirilgan hamda bu borada vodiy bo‘yicha ishlab chiqilgan ikki davrlashtirish nazariyasini ta’kidlash mumkin.

70-yillarning boshlarida hududdagi arxeologik izlanishlar I. Ahrorov¹⁶, S. Rahimov, E. B. Qodirov¹⁷, 80-90-yillarda M. H. Isamididinov¹⁸, A. A. Anarbayev¹⁹, B. H. Matboboyev²⁰, G. Mirzaliyev, S. R. Baratov²¹, S. S. Qudratov²² kabi olimlar tomonidan davom ettirilgan. Mustaqillik yillarida mavjud materiallar

⁶ Латынин Б. А. Работы в районе проектируемой электростанции на р. Нарыне в Фергане (Гидроэлектропроект) // Известия ГАИМК. Вып. 110. Археологические работы на новостройках. Т. II. – Ленинград, 1935. – С. 120–150.

⁷ Массон М. Е. Экспедиция археологического надзора на строительстве Большого Ферганского канала им. И.В.Сталина // КСИИМК. – Москва–Ленинград: АН СССР, 1940. – №4. – С. 52–54.

⁸ Оболдуева Т. Г. Археологические наблюдения на Северном Ферганском канале // Известия Узбекского филиала Академии наук СССР. – Ташкент: Фан, 1940. – №10. – С. 29–32.

⁹ Бернштам А. Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая // МИА. – Москва–Ленинград: АН СССР, 1952. – №26. – 346 с.

¹⁰ Воронец М. Э. Археологические исследования Института истории и археологии и музея истории Академии наук УзССР на территории Ферганы в 1950–1951 годах // Труды Музея истории УзССР. Вып. II. – Ташкент, 1954. – С. 60–61.

¹¹ Спришевский В. И. Чустское поселение (к истории Ферганы в эпоху бронзы). Автореф. дисс.... канд. ист. наук. – Ташкент: Фан, 1969. – 17 с.

¹² Сорокин С. С. Некоторые вопросы происхождения керамики катакомбных могил Ферганы // СА. – 1954. – №20. – С. 134.

¹³ Заднепровский Ю. А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА. – Москва–Ленинград: АН СССР, 1962. – №118. – 328 с.

¹⁴ Чуланов Ю. Г. Некоторые новые памятники Северной Ферганы // СА. – 1967. – №2. – С. 247.

¹⁵ Горбунова Н. Г. Итоги исследования археологических памятников Ферганской области (к истории и культуры Ферганы) // СА. – 1979. – №3. – С. 16–34.

¹⁶ Ахраров И. Отчет Наманганского археологического отряда за 1976 г. // Архив Института археологии АН РУз. Фонд 8. Опис 1. Дело 72. – 117 с.

¹⁷ Кадыров Э. Б. Древние погребельные памятники Ферганы как исторический источник. Автореф. дисс. на соис. учен. степ. канд. ист. наук. – Ташкент, 1975. – 22 с.

¹⁸ Исамиддинов М. Х. Работы в Наманганской области // АО в СССР в 1980 г. – Москва: Наука, 1981. – С. 449–450; Исамиддинов М. Х., Матбабаев Б. Х., Кучкаров Т. Предварительное изучение керамики поселения Куялтепа северной Ферганы // ИМКУ. Вып. 18. – Ташкент: Фан, 1983. – С. 91–101; Исамиддинов М., Кучкаров Т., Хасанов М. Археологическое исследование зоны затопления Чартакского водохранилища // ИМКУ. – Вып. 19. – Ташкент: Фан, 1984. – С. 179–184.

¹⁹ Анарбаев А. А. Ахсикент – в древности и средневековье (Итоги и перспективы исследования) // СА. – 1988. – №1. – С. 171–187.

²⁰ Матбабаев Б. Х. Локальные варианты Чустской культуры Ферганы.: Автореф. дисс.... канд. ист. наук. – Ленинград, 1985. – 18 с.

²¹ Баратов С. Р. Культура скотоводов Северной Ферганы в древности и раннем средневековье (по материалам курумов и мугхона). Дисс. на соис. учен. степ. канд. ист. наук. – Самарканд. 1991. – 227 с.

²² Кудратов С. С. Поселения левобережья р. Нарын в Фергане (III в. до н. э. – V в. н. э.). Дисс.... на соиск. учен. степ. канд. ист. наук. – Санкт-Петербург, 1992. – 180 с; Иванов Г. П. Археологические культуры Ферганы (периодизация и синхронизация). Автореф. дисс. на соискание учен. степ. канд. ист. наук. – Самарканд, 1999. – 25 с.

hamda yangi qazishmalar asosida Fargʻonaning bronza, ilk temir, antik va oʻrta asrlar davri xronologiyasiga jiddiy oʻzgarishlar kiritildi, shuningdek, vodiy arxeologiyasi hamda tarixining ayrim masalalari yoritildi²³. Keyingi davrda ushbu hududning u yoki bu qismida F. A. Maqsudov, B. M. Abdullayev, M. M. Saidov, Sh. N. Nasriddinov, S. Sh. Kubayev, Z. O. Raxmanov kabi arxeologlarning tadqiqotlarini alohida taʼkidlash joiz.

Shunga qaramay, ushbu mintaqaning oʻrganilishi bilan bogʻliq ayrim tarixiy hamda madaniy masalalar, jumladan, Norin va Qoradaryo oraligʻi hududi tarixi hamda arxeologiyasi boʻyicha ilmiy muammolar hal etilmagan va bahsli boʻlib qolmoqda. Mazkur mavzu boʻyicha hozirgi vaqtda katta arxeologik material toʻplangan boʻlib, bu oʻz navbatida, maxsus tadqiqotni amalga oshirishni kun tartibiga qoʻyish imkonini beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tashkilot yoki taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya Oʻzbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining “Ichki va xalqaro turizmning “Uchtepa-Buloqmozor” majmuasi arxeologik yodgorliklarini oʻrganish va ularni “Moviy osmon” ostidagi muzeyga aylantirish” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi. Arxeologik hamda yozma manbalar asosida Norin va Qoradaryo oraligʻi hududiga kiruvchi Uchtepa-Buloqmozor arxeologik majmuasi: Uchtepa-2 yodgorligining tarixiy topografiyasi hamda stratigrafiyasini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Yozma hamda arxeologik manbalarning ilmiy tahlili asosida Norin va Qoradaryo oraligʻi hududlari antik hamda ilk oʻrta asrlar davri Uchtepa-Buloqmozor arxeologik majmuasi yodgorliklarining tarixiy topografiyasini arxeologik qazuv tadqiqotlar natijalari asosida qiyosiy yoritish va ularning lokalizatsiyasi bilan bogʻliq muammolarni tadqiq etish hamda tahlil qilish;

²³ Заднепровский Ю. А. Ошское поселение к истории Ферганы в эпоху поздней бронзы. – Бишкек: Мурас, 1997. – 172 с.; Кудратов С. С. Поселения левобережья р. Нарын в Фергане (III в. до н. э. – V в. н. э.). Дисс.... на соиск. учен. степ. канд. ист. наук. – Санкт-Петербург, 1992. – 180 с.; Иванов Г. П. Археологические культуры Ферганы (периодизация и синхронизация). Автореф. дисс. на соис. учен. степ. канд. ист. наук. – Самарканд, 1999. – 25 с.; Мақсудов Ф. А. Становление и этапы развития земледельческой культуры в Южной Фергане (вторая половина I тысячелетия до нашей эры – первая половина I тысячелетия нашей эры по материалам Маргилансайского оазиса). Автореф. дисс. на соискание учен. степ. канд. ист. наук. – Самарканд, 2002. – 27 с.; Крахмал К. А. Древний каменный век Ферганы. Автореф. дисс. на соис. учен. степ. канд. ист. наук. – Самарканд, 2004. – 24 с.; Абдуллаев Б. М. Возникновение и этапы развития фортификации Ферганы в древности и средневековье (кон. II тыс. до н.э. – нач. II тыс. н.э.). Автореф. дисс. на соис. учен. степ. канд. ист. наук. – Самарканд, 2007. – 29 с.; Abdullaev B. M. Eylaton madaniyati // The history of the Fergana valley in new researches // www.research-support-center.com. – 2021. – В. 3–11.; Oʻsha muallif: K probleme zylatanskoy kultury drevney Fergany // Vestnik MIЦАИ. Вып. 35. – Самарканд, 2023. – С. 19–35.; Oʻsha muallif: Новое в захоронение зйлатанского типа на востоке Ферганы (VII–III вв. до н.э.) // Vestnik MIЦАИ. Вып. 36. – Самарканд, 2023. – С. 7–19.; Илясова С. Р. Глазурованная керамика Шаша и Ферганы IX – начала XIII века: сравнительный анализ художественных традиций (по материалам Бинката–Ташкента и Ахсиката). Автореф. дисс. на соис. учен. степ. канд. ист. наук. – Самарканд, 2008. – 28 с.; Матбабаев Б. Х. Раннесредневековая культура Ферганы (на основе исторического анализа археологических источников V–VIII вв.). Автореф. дисс. на соис. учен. степ. докт. ист. наук. – Самарканд, 2009. – 58 с.; Анарбаев А. А. Фарғонанинг антик ва ўрта асрлар даври шаҳар маданияти. Маъруза шаклидаги докторлик диссертацияси. – Тошкент, 2017. – 154 б.; Алохунов А. А. Фарғона водийсининг бронза ва илк темир даври тарихи (маданий, ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий муносабатлар муаммолари). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. – Фарғона, 2020. – 190 б.

Uchtepa-Buloqmozor arxeologik majmuasini tadqiq etish natijasida Uchtepa-2 yodgorligi me'moriy reja va moddiy madaniyati rivojlanishining asosiy bosqichlari hamda davrlashtirilishini ko'rsatib berish;

Uchtepa-2 yodgorligida olib borilgan tadqiqotlar natijasida qo'lga kiritilgan sopol majmualarini arxeologik, qiyosiy hamda morfologik tahlil qilish va hudud aholisi hayotining taraqqiyot dinamikasini ko'rsatib berish;

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, qadimgi va o'rta asrlar Uchtepa-Buloqmozor manzilgohlari tarixi muammolari – turar-joy, hunarmandchilik, jamoat hamda diniy binolarining shakllanish jarayonlariga doir ilmiy yechimni taklif qilish hamda Uchtepa-2 yodgorligi qurilish-me'morchilik, altar-o'choqlari, tosh qurilmalari, hunarmandchilik mahsulotlarining funksiyalarini aniqlash.

Tadqiqotning ob'yektini Uchtepa-Buloqmozor arxeologik majmuasining arxeologik tadqiq etilgan Uchtepa-2 yodgorligi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti Qadimgi va o'rta asrlar Uchtepa-Buloqmozor arxeologik majmuasi Uchtepa-2 yodgorligi, uning madaniy qatlamlari, turar-joy tuzilishi, moddiy madaniyati hamda me'morchiligini o'z ichiga oladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada xolislik va tizimli yondashuv tamoyillari, davriy, tasnifiy, qiyosiy-tipologik hamda tarixiy-qiyosiy usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Zamonaviy texnologiyalar asosida olib borilgan izlanishlar, yozma va arxeologik manbalarning ilmiy tahlili asosida Miyon-Rudon muzofotini bosh shahri Haylomning hozirgi Uchtepa-Buloqmozor arxeologik yodgorliklar majmuasi o'rni bilan lokalizatsiya qilinganligi asoslandi;

Uchtepa-2 yodgorligida olib borilgan stratigrafik qazishmalar natijasida aniqlangan me'moriy reja va sopol komplekslari asosida yodgorlikning davriy sanasi mil. avv. III asr – milodiy VIII asrlar bilan davrlashtirilganligi isbotlandi;

Uchtepa-2 yodgorligida qo'lga kiritilgan sopol majmualari birinchi bor 3 ta xronologik davrga ajratilib, shu asosda manzilgoh aholisi hayotining taraqqiyot dinamikasi intensiv ravishda davriy jihatdan bosqichma-bosqich kechganligi dalillandi;

Uchtepa-Buloqmozor arxeologik majmuasi "Uchtepa-2" yodgorligidan olingan arxeologik materiallar – me'moriy reja, altar-o'choqlar, tosh qurilmalar, "muqaddas" sanalgan olovdan qolgan kullarning maxsus o'choq va tosh qurilmalarda saqlanishi, turli ko'rinishdagi diniy e'tiqod buyumlarining topilishi asosida bu yodgorlikda otashparastlik ibodatxonasi bo'lganligi isbotlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Dissertatsiyada Farg'ona vodiysi shimoliy-sharqiy hududlari – Norin va Qoradaryo oralig'idagi Uchtepa-Buloqmozor arxeologik majmuasi yodgorliklarda olib borilgan tadqiqotlar natijalari umumlashtirilib, hududni o'zlashtirishga oid materiallar qayta ishlab chiqilgan, ilmiy xulosalar chiqarilgan, O'zbekiston Respublikasida madaniy meros ob'yektlaridan ta'lim jarayoni, shuningdek, tashqi va ichki turizmni rivojlantirishda foydalanish mumkinligi borasida taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi undagi har bir masala yozma va mod-

diy manbalar bilan taqqoslanganligi, dala-ekspeditsiya ishlarida qo‘lga kiritilgan arxeologik materiallardan foydalanilganligi, tarix hamda arxeologiya fanlarida tan olingan usullar, shuningdek, arxeologik yodgorliklarni qazishda zamonaviy texnologiya imkoniyatlari, yangi uslubiy va nazariy yondashuvlardan foydalanilganligi, ilmiy tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Miyon-Rudon muzofoti aholisi madaniyatning shakllanishi, voha moddiy va ma’naviy madaniyatidagi o‘zgarishlar hamda ushbu madaniyatning tarqalishi, ularga migratsion va etnomadaniy jarayonlarning ta’sirini asoslanishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijasida olingan ilmiy natijalardan arxeologiya, antropologiya, O‘zbekiston tarixi, etnologiya, jahon sivilizatsiyalari tarixi, o‘lkashunoslik va boshqa qadimgi madaniyatlarni o‘rganuvchi fan sohalariga oid mavjud nazariy bilimlarni yanada boyitish, ularning dasturlarini ishlab chiqish hamda takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Shuningdek, ushbu dissertatsiya antik va ilk o‘rta asr shahar hamda qishloq makonlaridagi urbanizatsiya jarayonlari, diniy-e’tiqodiy qarashlari hamda moddiy madaniyatini chuqur o‘rganish, ularning an’anaviy turmush tarzi modelining tub asoslari to‘g‘risidagi arxeo-antropologik qarashlarni rivojlantirish imkonini beradi. Qolaversa, ishda aks etgan tadqiqot natijalari, umumiy xulosa va tavsiyalardan jamoat va davlat tashkilotlari, xususan, OTM, ITM, OAV faoliyatida O‘zbekiston tarixini kengroq yoritishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

“Uchtepa-Buloqmozor arxeologik majmuasi: Uchtepa-2 yodgorligining tarixiy topografiyasi va stratografiyasi” mavzusidagi tadqiqot bo‘yicha qo‘lga kiritilgan ilmiy natijalar asosida:

Uchtepa-2 yodgorligida olib borilgan arxeologik qazuv ishlari natijasida topilgan artefaktlar va ularni yozma manbalar bilan qiyosiy tahlili asosida olingan ma’lumotlar Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi fondlarini boyitishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2024-yil 7-oktyabrdagi 02-05/3746-sonli ma’lumotnomasi). Shuningdek, ushbu materiallar Farg‘ona vodiysi tarixining qadimgi va ilk o‘rta asrlar davrlari bo‘yicha yangi ma’lumotlar bazasini yaratishga ham xizmat qiladi. Natijada, Farg‘ona vodiysining shimoli-sharqiy hududlarida antik va ilk o‘rta asrlarda urbanizatsiya jarayonlari jadal kechganligi hamda aholining diniy-e’tiqodiy qarashlari yuksak darajada bo‘lganligi arxeologik manbalar asosida ilmiy asoslab berilgan;

Norin va Qoradaryo oralig‘i yodgorliklarining shakllanish tarixi, ularning lokalizatsiya masalalari, Uchtepa-2 yodgorligida olib borilgan arxeologik izlanishlar, tadqiqot davomida uchratilgan noyob topilmalar va ular orqali shimoli-sharqiy Farg‘onaning mil. avv III – milodiy VIII asr hayot tarzi, diniy e’tiqod masalalari, me’morchilik an’analari, ma’naviy dunyoqarash va tarixiy taraqqiyot bosqichlari kabi tadqiqot natijalari O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Ko‘hna manzillar” ilmiy-ma’rifiy ko‘rsatuvi ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali” davlat muassasining 2024-yil

14-oktyabrda 01-44--33-sonli ma'lumotnomasi). Yuqoridagi ma'lumotlar ko'rsatuvni ilmiy dalillar bilan boyitish va uning ommabopligini ta'minlash bilan birga mamlakatimiz madaniy merosining o'rnini va ahamiyatini xalqimizga yetkazish vositasi bo'lib xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta jumladan, 2 ta xalqaro va 4 ta Respublika miqyosidagi ilmiy-nazariy konferensiyalarda qilingan ma'ruzalarda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan. Shundan 6 ta maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan ilmiy nashrlarda, 3 tasi xorij jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar hamda shartli qisqartmalar ro'yxatidan iborat. Ishning tadqiqot qismi 135 betni tashkil etib, unga 55 dona illyustrativ materiallardan iborat albom ilova qilingan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, mavzuning o'rganilganlik darajasi ochib berilgan, ishning maqsadi va vazifalari, ob'yekti va predmeti belgilangan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Norin-Qoradaryo muzofotining tabiiy geografiyasi va hudud ob'yektlarining o'rganilish tarixi**" deb nomlanib, uning birinchi paragrafida (**Norin va Qoradaryo oralig'i hududlarining tabiiy geografik xarakteristikasi**) mintaqaning tabiiy geografik xarakteristikasi va iqlim sharoiti to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Farg'ona vodiysining ikki daryo orasi – Norin va Qora daryo oralig'ining o'rta asrlarga oid yozma manbalarda Miyon-Rudon deb nomlanishi²⁴ va hududdagi arxeologik yodgorliklarning o'rganilishi masalalari yoritilgan.

Vodiy hududida tabiiy geografik sharoitning har xilligi asosida 6 ta tabiiy geografik rayonga ajratilgan. Bular – G'arbiy Oloy, Markaziy tekislik, G'ovasoy, Chotqol, Farg'ona va Sharqiy Oloy rayonlaridir. Tadqiqot olib borayotgan hudud ham aynan Farg'ona vodiysi tabiiy geografik sharoitga mos keladi.

Farg'ona vodiysi Turkiston tog' tizmasining janubi-g'arbiy tomonlarida joylashgan Norin, Moylisoy, Qoraungur, Kugart hamda Yassi daryolari yoyilmalarini o'z ichiga oladi. Dengiz sathidan balandligi janubiy-g'arbda 400 metrdan shimoli-sharqda 3000–4000 metrgacha ko'tarilib boradi. Farg'ona vodiysi o'z navbatida 5 ta landshaft turiga ajratilgan bo'lib, eng katta maydonni madaniy landshaftlar (88 %) egallagan²⁵.

²⁴ Ал Истахрий. Китаб ал-масалик вал-мамолик / Йўллар ва ўлкалар китоби. Хуросон ва Мовароуннахр. Тадқиқот, араб тилидан таржима, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Р. Т. Худайбергенов. Масъул муҳаррир академик Д. Ю. Юсупова. – Тошкент: Фан, 2019. – Б. 181–182.

²⁵ Хасанов И. А., Фуломов П. Н., Қаюмов А. А. Ўзбекистон табиий географияси (2-қисм)... – Б. 150.

Ushbu tabiiy-geografik landshaft insoniyat tomonidan eng qadimgi davrlardan boshlab o'zlashtirilgan. Norin va Qoradaryo oralig'i dehqonchilik uchun eng qulay hududlardan biri hisoblanadi. Qo'ng'ir rangli tuproqning mavjudligi, katta va kichik daryo hamda soylarning doimiy suv balansi, yer osti buloqlarining ko'pligi qadim zamonlardan hozirgi kunga qadar dehqonchilik va chorvadorlik xo'jaliklarini gullab-yashnashiga asos bo'lgan. Shuning uchun bu yerlardan dehqon va chorvador jamoalarining turli davrlarga oid ko'plab makonlari aniqlangan²⁶.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi **“Norin va Qoradaryo muzofoti arxeologik yodgorliklarining o'rganilish tarixi”**ga bag'ishlangan. Farg'ona vodiysi arxeologik yodgorliklarining o'rganilishi XIX asr oxirida N. I. Veselovskiy kabi sharqshunos olimlarning kelishi bilan boshlangan²⁷. Keyinroq, ya'ni XIX asr oxiri – XX asr boshlarida “Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi” a'zolari tomonidan kichik hajmdagi tadqiqotlar olib borildi²⁸.

1930–1934-yillarda Norin daryosida GES qurilishi munosabati bilan B. A. Latinin boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiya faoliyat olib bordi²⁹. Ushbu ekspeditsiya tadqiqotlari natijasida Farg'ona vodiysi qadimgi moddiy madaniyati tarixining xronologik jadvali ishlab chiqildi³⁰.

Mintaqaning qadimgi va o'rta asrlar davri arxeologik yodgorliklarining o'rganilishi M. Y. Masson, T. G. Obolduyeva, A. N. Bernshtam, M. Y. Vorones, V. I. Sprishevskiy, S. S. Sorokin, Y. A. Zadneprovskiy, Y. G. Chulanov va N. G. Gorbunovalar tomonidan davom ettirildi³¹.

Tadqiqot ob'yekti joylashgan hududda T. G. Obolduyeva 50 dan ortiq antik va o'rta asrlarga oid yodgorliklar aniqladi³². Bundan tashqari, Farg'ona vodiysi-

²⁶ Заднепровский Ю. А. Древнеземледельческая культура Ферганы... – С. 108.

²⁷ Шишкин В. А. К истории археологического изучения Самарканда и его окрестностей / Афрасиаб. Афрасиабская комплексная археологическая экспедиция / Отв. ред. акад. АН УзССР Я. Г. Гулямов. Вып. I. – Ташкент: Фан, 1969. – С. 24–25.

²⁸ Заднепровский Ю. А. Древнеземледельческая культура Ферганы... – С. 52–55; Литвинский Б. А. Археологический сборник Исфаринского района // Тр. АН ТаджССР. – Душанбе, 1955. Т. 35. – С. 55.

²⁹ Латынин Б. А. Работы в районе проектируемой электростанции на р. Нарыне в Фергане (Гидроэлектростанция)... – С. 120–150; O'sha muallif: Некоторые итоги работ Ферганской экспедиции 1934 г. // АСГЭ. Вып. 3. – Ленинград: Гос. Эрмитажа, 1961. – С. 109–170.

³⁰ Латынин Б. А. Вопросы истории ирригации древней Ферганы // КСИИМК. Вып. 64. – Москва: АН СССР, 1956. – С. 15–26.

³¹ Массон М. Е. Экспедиция археологического надзора на строительстве Большого Ферганского канала им. И.В. Сталина // КСИИМК. Вып. 4. – Москва–Ленинград: АН СССР, 1940. – С. 50–54; Оболдуева Т. Г. Отчет о работе первого отряда археологической экспедиции на строительстве БФК // Труды института истории и археологии. Т. IV. – Ташкент: АН УзССР, 1951. – С. 3–41; Бернштам А. Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая // МИА. – Москва–Ленинград: АН СССР, 1952. – №26. – 346 с.; Воронец М. Э. Археологические исследования Института истории и археологии и Музея истории Академии наук УзССР на территории Ферганы в 1950–1951 годах / Труды Музея истории УзССР. Вып. II. – Ташкент, 1954. – С. 60–61; Спришевский В. И. Чустское поселение (к истории Ферганы в эпоху бронзы). Автореф. дисс.... на соис. учен. степ. канд. ист. наук. – Ташкент: Фан, 1969. – 17 с.; Сорокин С. С. Некоторые вопросы происхождения керамики катакомбных могил Ферганы // СА. – 1954. – №20. – С. 131–147; O'sha muallif: Культура древних скотоводов в предгорьях Ферганы. Автореф. дисс.... на соис. учен. степ. канд. ист. наук. – Ленинград, 1958. – 20 с.; Заднепровский Ю. А. Древнеземледельческая культура Ферганы... – 327 с.; Чуланов Ю. Г. Новые памятники эпохи бронзы Ферганской области // СА. – 1963. – №4. – С. 194–199; Горбунова Н. Г., Оболдуева Т. Г. Поселение Арал-тепе в Фергане // АСГЭ. Вып. 29. – Ленинград: Искусство, 1988. – С. 82–96; Горбунова Н. Г. Поселения первых веков нашей эры (некоторые итоги исследования) // СА. – 1977. – №3. – С. 107–120.

³² Оболдуева Т. Г. Отчет о работе первого отряда археологической экспедиции на строительстве Большого Ферганского канала // ТИИ АН УзССР. – Ташкент, 1951. Т.4. – С. 32–33.

ning arxeologik o'rganilishida A. N. Bernshtamning o'rni cheksizdir. Ushbu olim 1946–1948-yillarda Pomir-Oloy, 1950–1952-yillarda Pomir-Farg'ona ekspeditsiyalariga rahbarlik qilib, vodiy qadimgi tarixi bo'yicha ulkan kashfiyotlar qilishga muvassar bo'ldi.

1952-yilda Y. A. Zadneprovskiy Sharqiy Farg'onaning Qoradaryo bo'yida bronza davrining 25 gektarli Dalvarzintepa yodgorligini topib o'rganishga muvaffaq bo'ldi. Natijada, Dalvarzintepa Farg'ona vodiysidagi so'nggi bronza davriga oid eng yirik yodgorlik ekanligi aniqlandi³³. Shuningdek, u Eylaton shahar xarobalarida arxeologik tadqiqotlarni olib borib, uni mil. avv. VII–IV asrlar bilan davrlashtirdi³⁴. 1960–1963-yillarda ushbu shahar xarobasining mudofaa tizimi arxeolog olimi T. G. Obolduyeva tomonidan o'rganildi³⁵.

1967–1971-yillarda Katta Andijon kanali qurilishi munosabati bilan Norin va Qoradaryo oralig'i yodgorliklari Peterburgdagi Ermitaj hamda Farg'ona o'lkashunoslik muzeylari xodimlari hamkorligida o'rganilib, ushbu hududning Kuyuktepa, Oroltepa va Qizmozortepa yodgorliklarida qazishmalar o'tkazildi³⁶. Kuyuktepaning uchta qurilish davri – antik va ilk o'rta asrlarga oid ekanligi aniqlanib, ushbu ob'yekt milodiy II–VIII, Oroltepa va Qizmozortepalar esa milodiy II–IV asrlar bilan davrlashtirildi³⁷. Shuningdek, ushbu ekspeditsiya tomonidan Norin daryosining chap sohilida joylashgan arxeologik yodgorliklar o'rganilib, ularning shahar tipidagi eng yirigi atrofida bir nechadan qishloq makonlari joylashganligi aniqlandi³⁸.

XX asrning 60–70-yillarning boshlarida vodiydagi arxeologik izlanishlar I. Ahrorov³⁹, 80-yillarda M. Isamididinov, B. Matboboyev A. Anarbayerov⁴⁰, 90-yillarda S. R. Baratov⁴¹, S. S. Qudratov⁴² kabi olimlar tomonidan davom ettirilgan.

XX asrning 80-yillarida olib borilgan tadqiqotlar tanlangan mavzu geografik chegarasiga kiruvchi arxeologik yodgorliklarning tizimli ravishda o'rganilishi bilan izohlanadi. Xususan, akademik A. Asqarov rahbarligida olib borilgan tadqiqotlar natijasida olamshumul kashfiyotlar qilindi⁴³.

³³ Заднепровский Ю. А. Древнеземледельческая культура Ферганы... – С. 9.

³⁴ Заднепровский Ю. А. Городище Эйлатан (к вопросу о датировке памятника) // СА. – 1960. – №3. – С. 44–45.

³⁵ Оболдуева Т. Г. О датировке стен Эйлатана // СА. – 1981. – №4. – С. 194.

³⁶ Горбунова Н. Г., Оболдуева Т. Г. Поселение Арал-тепе в Фергане // АСГЭ. Вып. 29. – Ленинград: Искусство, 1988. – С. 82.

³⁷ Горбунова Н. Г. Керамика поселений Ферганы первых веков нашей эры // ТГЭ. Т. XX. – Ленинград: Искусство, 1979. – С. 129.

³⁸ Горбунова Н. Г., Оболдуева Т. Г. Работы в зоне строительства Центрального Ферганского канала // АО 1967. – Москва: 1968. – С. 339–340.

³⁹ Ахраров И. Отчет Наманганского археологического отряда за 1976 г. / Архив Института археологии АН РУз. – Самарканд, 1976. Ф8. О1. Д72. – 117 с.

⁴⁰ Исамиддинов М. Х. Работы в Наманганской области / Археологические открытия в СССР в 1980 г. – Москва: Наука, 1981. – С. 449–450; Исамиддинов М. Х., Матбабаев Б. Х., Кучкаров Т. Предварительное изучение керамики поселения Куюлтепа Северной Ферганы // ИМКУ. Вып. 18. – Ташкент: Фан, 1983. – С. 91–101; Исамиддинов М. Х. Разведочные работы в Наманганской области // Археологические открытия в СССР в 1983 г. – Москва: Наука, 1985. – С. 531; Анарбаев А. А. Ахсикент – в древности и средневековье (Итоги и перспективы исследования)... – С. 171–187; Матбабаев Б. Х. Локальные варианты Чустской культуры Ферганы. Автореф. дисс.... канд. ист. наук. – Ленинград, 1985. – 18 с.

⁴¹ Баратов С. Р. Культура скотоводов Северной Ферганы в древности и раннем средневековье... – С. 24.

⁴² Кудратов С. С. Поселения левобережья р. Нарын в Фергане (III в. до н. э. – V в. н. э.). Автореф. дисс.... канд. ист. наук. – Санкт-Петербург, 1992. – 26 с.

⁴³ Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиши тарихи. – Тошкент. O'zbekiston, 2015. – Б. 135.

Keyinchalik M. Isomiddinov tomonidan Norin va Qoradaryo oralig‘i hududlarida olib borilgan arxeologik qidiruv izlanishlari natijasida Namangan viloyatining Uychi, Uchqo‘rg‘on hamda Norin tumanlarida 50 dan ortiq arxeologik yodgorliklar ro‘yxatga olindi, ularning o‘lchami tarhlari chizilib, ular joylashuviga ko‘ra xaritalashtirildi⁴⁴. Bu asnoda Norin va Qoradaryo oralig‘ida olib borilgan arxeologik yodgorliklarni xaritalashtirish, suv manbalari asosida irrigatsiya rayonlarga bo‘lib o‘rganishda B. H. Matboboyevning tadqiqotlarini alohida ta’kidlash joiz⁴⁵.

Mazkur hududdagi keyingi tadqiqotlar S. Qudratovning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan⁴⁶. Tadqiqotchi tomonidan Eylaton qadimgi shaharining yangi stratigrafiyasi belgilanib, uning davri mil. avv. III–II asrlar bilan davrlashtirildi⁴⁷. Shuningdek, Qo‘g‘ay stansiyasi yaqinidagi Kuyuktepa qasri stratigrafiyasi masalalariga yanada oydinlik kiritildi⁴⁸. Mustaqillikning dastlabki yillarida tadqiqotlar asosan, yodgorliklarni qayta ro‘yxatdan o‘tkazish, saqlanish holatini tekshirish va ayrim qazishma ishlarini olib borishdan iborat bo‘ldi⁴⁹.

Shunga qaramay, Norin va Qoradaryo oralig‘i hududlarining o‘zlashtirilishi bilan bog‘liq masalalarda ayrim bahsli muammolar ham borki, ularni yechimida Uchtepa-Buloqmozor arxeologik yodgorliklar majmuasi, ayniqsa, uning Uchtepa-2 otashparastlik ibodatxonasini keng ko‘lamda muxtasar o‘rganilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi **“Uchtepa-2 ob‘yektida o‘tkazilgan arxeologik izlanishlar tahlili”** deb nomlanib uchta paragrafdan iborat. Birinchi paragraf **“Uchtepa-2 ob‘yekti topografiyasi, stratigrafiyasi va xronologiyasi”** deb nomlanib, Norin tumani Uchtepa qishlog‘idagi Qaynarbuloq sohilida qad ko‘targan Buloqmozor arxeologik yodgorliklarining tarixiy topografiyasi va “Uchtepa-2” ob‘yekti stratigrafiyasining o‘rganilishi alohida tadqiqot mavzusi sifatida tanlab olingan. Mazkur arxeologik yodgorliklar majmuasi uchta tepaliklardan iborat. Ularning birinchisi qo‘shaloq Qaynarbuloq sohilida joylashgan “Uchtepa-1”, undan 500 metrilar chamasig‘arbda joylashgan “Uchtepa-2”, ularga tutash joylashgan Aminjon otaning charbog‘ida qisman saqlanib qolgan “Uchtepa-3” yodgorliklari hisoblanadi.

Ilk bor “Uchtepa-2” obyektiga bo‘yicha A. Asqarov ma’lumot bergan bo‘lsa, ushbu yodgorlik haqidagi keyingi ma’lumotlarni A. Asqarovga tayangan holda M.

⁴⁴ Исамиддинов М. Х. Работы в Наманганской области // Археологические открытия в СССР в 1980 г. – М.: Наука, 1981. – С. 449–450; О‘sha muallif. Разведочные работы Наманганского отряда // Археологические открытия в СССР в 1981 г. – М.: Наука, 1983. – С. 455.

⁴⁵ Матбабаев Б. Х. Раннесредневековая культура Ферганы... – С. 17–18.

⁴⁶ Кудратов С. С. Поселения левобережья р. Нарын в Фергане... – С. 26.

⁴⁷ Yuqoridagi asar... – С. 112.

⁴⁸ Qudratov S. Kuyuktepa – Qadimgi Farg‘ona tarixini davrlashtirishdagi muhim yodgorlik. Namangan viloyati hokimligi va Milliy arxeologiya markazi bilan hamkorlikda 2024-yilning 9-10 sentabr kunlari o‘tkazilgan “Axsikent – Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tarixida” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferentsiya materiallari. – Namangan-Toshkent. 2024. – B. 83-92.

⁴⁹ Анарбаев А., Исамиддинов М., Саидов М., Рахманов З. Отчет о работах по составлению свода археологических памятников Наманганской области // Архив Академии наук Республики Узбекистан Института археологии им. Я. Г. Гулямова. – Самарканд. 2014. – 175 с.; Рахманов З. О., Хомиджонова М. А. Quyuqtepa yodgorligida olib borilgan dastlabki tadqiqotlar // FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник ФерГУ. 2017. – №6. – В. 46–50.

Isomiddinov o‘z hisobotlarida qayd etgan⁵⁰. Mazkur hisobotlarda yodgorlik “Uchtepa-2”, O‘rtatepa yoki Nuralitepa nomlari bilan ham nomlanishi, o‘sha vaqtda tepalik deyarli yumaloq shaklda bo‘lib, shimoldan janubga 40 m., sharqdan g‘arbga 30 m., balandligi 5 m., bo‘lganligi to‘g‘risida malumot berilgan⁵¹.

Tarixiy manbalarda yozilishicha, Norin va Qoradaryo orasi hududlari, ya‘ni hozirgi Namangan viloyatining Uychi, Uchqo‘rg‘on va Norin hamda Andijon viloyatining Izboskan tumanlari hududlari qadimgi hamda o‘rta asrlarda “Miyon-Ruzan” (Al Istaxriy), “Miyonrudiyya” (Al Muqaddasiy) muzofoti deb atalgan. V. V. Bartol‘dning yozishicha “Miyon-Rudan” atamasi ushbu hududni turkiycha “Ikki suv orasi” deb nomlanishi bilan bir xil ma‘noga ega bo‘lgan⁵². Muzofotning bosh shahri manbalarda Xaylom va Xatlom deb atalgan bo‘lib, o‘z davrida Norin daryosiga ham shu atama ishlatilgan, aniqrog‘i shahar nomi aynan daryo nomidan olingan⁵³. Ushbu muzofot qishloq va shaharlari orqali qadimda va o‘rta asrlarda Buyuk Ipak yo‘lining mahalliy tarmoqlari o‘tgan. Fikrimizcha, Miyon-Rudon muzofotining bosh shahri – Haylom hozirgi Uchtepa qishlog‘i hududiga to‘g‘ri keladi.

Keyingi yillarda Haylomning chor atrofi o‘zlashtirilib, endilikda u o‘zining tarixiy qiyofasini yo‘qotdi. Chunki, hozirgi kunda uning shahriston qismi mahalliy aholining tomorqa hovli-joylariga aylanib ketgan. Ushbu qadimgi shahar shahristonidan janubi-sharqda joylashgan baland tepalik “Uchtepa-2” deb nomlanib, dastlab bu yer mahalliy hukmdorning mozar-qo‘rg‘oni bo‘lishi mumkin, degan taxminga kelindi. Chunki, uning tepasida hech qanday arxeologik material uchratilmadi. Yuqoridagilarni inobatga olinib, “Uchtepa-2” yodgorligida qazishma ishlari olib borildi.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi beshta qismdan iborat bo‘lib, uning birinchisi **“Zamonaviy texnologiyalar asosida olib borilgan izlanishlar”** deb nomlanadi. Unda Uchtepa-2 ob‘yektida zamonaviy texnologiyalar bilan yerni foto magnitli skayner uskunasi yordamida anomalialarga asoslangan geofizik uslublar orqali 10 metrgacha chuqurlikda saqlanib qolgan arxeologik artefaktlar, qadimgi me‘moriy qurilma qoldiqlarini topishi mumkin ekanligi va so‘ng ularni arxeologik qazishmalar orqali qanchalar realligini aniqlash kerakligi masalasi ko‘tarildi. Dastlab “Uchtepa-2” ob‘yektida 1,5 metr chuqurlikdan boshlab zichlikdagi anomalialar kuzatildi, so‘ngra 7 metrgacha chuqurlikdagi qattiq jismlarni kuzatishi mumkinligi sinab ko‘rildi⁵⁴. Olingan ma‘lumotlarning ishonchliligi keyingi dala qazishmalarining natijalari bo‘yicha tekshirilganda, 1,5 metr chuqurlikda uskuna yordamida chiqarilgan xaritada aks etgan zichlikdagi anomalialar kuzatilib, ushbu yondashuvning to‘g‘riligi isbotlandi.

Ikkinchi paragrafnning ikkinchi qismi **“Arxeologik qazuv uslubi va strati-grafik shurf”** deb nomlanib, unda yodgorlikni o‘rganishdan avval uning eng ba-

⁵⁰ Исамиддинов М. Х. Материалы к своду археологических памятников Наманганской области // Архив Института археологии АН РУз. Фонд 8. Опис 1. Дело 91. – Самарканд, 1982. – С. 21.

⁵¹ O‘sha joyda.

⁵² Бартольд В. В. Сочинения. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Том I. – Москва: Восточной литературы, 1963. – С. 212.

⁵³ O‘sha joyda.

⁵⁴ Изучение археологических объектов на примере древнего городища «Учтепа» (Наманганская область) / Отчет лаборатории «Геофизики и наноминералогии» ЦПТ. – Ташкент, 2018. – С. 6. Рис. 5.

land nuqtasiga reper qozig‘i o‘rnatilib, tepa markaziy maydonning ustki qismi 2×2 metrli kvadrat setkalarga bo‘lib chiqildi. Har bir kvadrat maydon 1 metrgacha chuqurlikda sho‘rhok mayin tuproqdan tozalandi. Ammo, ushbu chuqurlikda qurilish qoldiqlari va sopol parchalari uchramadi. Tozalangan maydondan 1,30 metrdan ortiqroq chuqurlikdan inshootning markaziy qismi aylanasi bo‘ylab qator oval shaklida qurilgan tosh altarlar chiqa boshladi, ulardan yana pastroqda esa paxsa va xom g‘ishtdan tiklangan devor qoldiqlari kuzatildi. So‘ng tepa maydoni 4 qismga bo‘linib, ular ham birin-ketin sho‘rhok mayin tuproqdan tozalandi. Shundan so‘ng mazkur ob‘yekt stratigrafiyasini o‘rganish uchun 1 ta shurf va 1 ta transheya qazildi. Stratigrafik shurf tepalikning shimoli-g‘arbiy tomonida, 3,5×2,40 metr xajmda 1,70 m chuqurlikda qazildi.

Kesmada eng quyi qatlam materik bo‘lib, u och-sarg‘ish rangli toza tuproqdan iborat, uning ustida 20 sm. li ko‘kintir balchiq qatlam kuzatildi. Uning yuqori ustki qismi esa 10 sm. li mayda tosh aralash ko‘kintir qum qatlamidan iborat. Ularning ustida sarg‘ish rangli qattiq sho‘x qatlam ochildi. Uning qalinligi 40–50 sm. Uning tarkibida kul yoki arxeologik material izlari uchratilmadi. Undan yuqoridagi 3-qatlam qalinligi 60 sm., ko‘kintir qattiq qatlam bo‘lib, tarkibida organik, qum va o‘simlik qoldiqlari kuzatildi. Extimol ushbu qatlam yodgorlik platformasini qurishda hosil qilingan yoki tuproq tashlab to‘ldirilgan bo‘lishi mumkin.

Pastdan yuqoriga 4-qatlam qalinligi 20–25 sm., qoramtir tusga ega. Tarkibida och-qizil tiniq angobli sopol parchalari, xom g‘isht bo‘laklari, qattiq kesak, suyak va organik qoldiqlar kuzatildi. Ushbu qatlamni shurf devorlari bo‘ylab bir hil tekislikda yoyilganligini kuzatish mumkin.

5-qatlamning qalinligi 20 sm., bo‘lib, rangi qo‘ng‘ir tusli. Qatlam qizg‘ish-qoramtir angobli sopol parchalariga boy, ba‘zi bir sopol parchalari sirtiga uchburchak, romb kabi tirnab naqshlar solingan. Fikrimizcha, ushbu qatlam so‘nggi antik davrga oid bo‘lishi mumkin.

6-qatlam och qo‘ng‘ir tusli qattiq qatlam bo‘lib, qalinligi 60 sm. Tarkibida angobsiz sopol parchalari, hayvon suyaklari, tosh parchalari uchratildi. Sopol parchalari uni ilk o‘rta asrlarga tegishli ekanligidan darak beradi. Shurfning janubi-g‘arbiy burchagida, ushbu qatlam ustki qismida qizg‘ish tusli o‘choq ochildi. Qatlamning yuqori qismida bir qator, o‘lchami 37x12x10x20-24 sm.lik xom g‘ishtar terib chiqilgan. G‘ishtar ustida chim qatlami hosil bo‘lgan.

Shunday qilib, stratigrafik shurfning tarkibi va u yerdan topilgan sopol parchalariga qaraganda yodgorlik 3 ta xronologik davrni boshidan kechirgan. Quyi qatlam o‘zining tiniq qizil angobli sopollari bilan mil. avv. III – milodiy I asrlarga tegishli bo‘lsa, uning yuqorisidagi qatlamlar o‘zining qoramtir angobli va tirnama bezakli sopollari bilan so‘nggi antik davriga, ya‘ni milodiy III–IV asrlarga tegishli. Yuqori madaniy qatlamlar angobsiz, qalin devorli sopollari va g‘ishtar bilan ilk o‘rta asrlarga tegishli bo‘lgan.

Ikkinchi paragrafning uchinchi qismi “**Stratigrafik transheya**” deb nomlanib, yodgorlikni qatlam-qatlam o‘rganish va davriy mansubligini aniqlash maqsadida stratigrafik transheya tushirildi. Transheyaning uzunligi dastlab 10 m., kengligi 1 metr o‘lchamda tushirilishi belgilab olindi. Inshootning ustiga o‘rnatiladigan metall konstruksiya chizma razmeri tufayli transheya uzunligini 7,40 sm. ga

qisqartirishga majbur bo‘lindi. Transheya kesmasida shimoldan janub tomon paxsa va xom g‘isht parchalari aralash madaniy qatlamlarni kesib 4 metrgacha tushildi, uning janubiy adog‘ida esa 2 metr masofada 7,72 metr chuqurlikkacha qazib borildi.

Transheyani qazish davomida 12 ta qatlam aniqlandi. Madaniy qatlamlarda kulolchilik mahsulotlari, suyak qoldiqlari, kul izlari, organik qoldiqlar, xom g‘isht paxsa bo‘laklari uchratildi. Shunday qilib, transheya janubiy adog‘ining kesmasini xronologik aspektda yoritadigan bo‘lsak quyidagilarni kuzatish mumkin:

1–4-qatlamlar ilk antik davrga oid bo‘lib, yodgorlikning asosini tashkil etgan aylana devorlar va ular orasiga tashlangan tuproqlardan iborat;

5–6-qatlamlarda antik davrdagi qurilish qoldiqlari va sopol parchalaridan iborat. Qatlamlardagi devor qoldiqlari yodgorlikni ichki xonalari joylashgan satxni hosil qilishda qurilganligidan dalolat beradi.

7–10-qatlamlar biroz yumshoq va yupqaroq ekanligi faol hayot tarzi hukm surganligidan dalolat beradi. Tarkibida so‘nggi antik davr sopol materiallarining mavjudligi bunga yanada oydinlik kiritadi.

11–12-qatlamlar 40x20x12, 39x18x10, 42x20x10, sm o‘lchamdagi xom g‘ishtlar va paxsa bloklari bilan kombinatsiyalashgan qurilish qoldiqlaridan iborat. Ushbu holat yuqoridagi qatlamlar so‘nggi ikkinchi qurilish davri, ya‘ni ilk o‘rta asrlar bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Transheyaning janubiy va sharqiy devorlari stratigrafik kuzatuvlarga ko‘ra, yodgorlik to‘rt pog‘onali (terrasa) inshoot bo‘lib, 3 ta xronologik davrni boshdan kechirgan. Yuqori davr qurilish bosqichi (ilk o‘rta asrlar) qoldiqlari deyarli saqlanmagan.

Ikkinchi paragrafning to‘rtinchi qismi **“Uchtepa-2” otashparastlik ibodatxonasining ustki me‘moriy rejasi** deb nomlanib, ob‘yekt hududida aniqlangan me‘moriy qurilishlar qoldiqlari va ularning rejasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirib o‘tiladi.

Yodgorlik 4 qismga bo‘linib, tadqiqotlar olib borildi. Ushbu 4 qism shartli ravishda sharqiy, g‘arbiy, shimoliy, janubiy qismlar sifatida belgilab olindi. Ob‘yekt usti yopilishi uchun markazda tayanch ustuni o‘rnatish zaruriyati tufayli tosh altar qoldiqlari fiksatsiya qilinib, olib tashlandi. Markaziy qismda olib tashlangan tosh altar atorfida aylana bo‘ylab bir tekislikda qator oval va to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi tosh altar qurilmalar ochila boshlandi. Ular tepalikning shimoliy, shimoli-sharqiy, shimoli-g‘arbiy, sharqiy, janubiy va janubi-sharqiy tomonlarini o‘rab olgan (tosh altar qurilma №1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9). №1, 2, 6, 7, 9 tosh altarlar aynan antik davr devorlari ustiga qurilgan. Fikrimizcha, ilk o‘rta asrlar davri tosh altar qurilmalari rejasiga muvofiq, ular yodgorlikning boshqa tomonlarida ham bo‘lishi mumkin. Biroq, keyingi davrlarda ayrim sabablarga ko‘ra, ular buzib tashlangan bo‘lishi ehtimoldan uzoq emas.

Ikkinchi paragrafning beshinchi qismi **“Uchtepa-2” otashparastlik ibodatxonasining quyi qatlamlari me‘moriy rejasi** deb nomlanib, markaziy reper nuqtasidan 2,30 metr chuqurlikda inshoot devorlari, ulardan 1 metr chuqurroq pol sathida altar-o‘choqlar, qabrlar ochila boshladi. Topilmalar ikki xronologik bosqichlarga tegishli bo‘lib, quyi bosqich kulolchilik mahsulotlari tiniq qizil rangda

angoblangan sopol parchalari (mil.avv. III–II va milodiy era boshlariga tegishli) bo‘lsa, ulardan yuqoriroq gorizontlarda uchraydigan sopol parchalari qoramtir qizil rangda angoblangan so‘nggi antik davr (milodiy III–IV asrlar)ga tegishli kulolchilik mahsulotlaridan iborat.

Tadqiqotlarimiz ushbu yodgorlikning to‘rt pog‘ona (terrasa)dan iboratligini ko‘rsatdi. Birinchi pog‘ona (terrasa) (pastdan yuqoriga) hozirgi zamon yer sathi yuzasidan 20–25 sm., pastroqdan boshlanadi. Chunki, materik ustida 25 sm. gacha tim qora agroirrigatsion qatlami hosil bo‘lgan. Ikkinchi pog‘ona (terassa) tepalikning janubiy va g‘arbiy tomonlarida aniqlandi. Uchinchi pog‘ona (terassa) esa ikkinchi pog‘ona (terassa)dan 1,40–1,50 metr balandlikdan boshlanadi. Ibodatxona altar-o‘choqlarining aksariyat ko‘pchiligi mana shu balandlikda joylashgan. To‘rtinchi pog‘ona (terassa)ning qadimgi sathidan tepalikning eng baland hozirgi zamon sathiga o‘rnatilgan reper nuqtasiga qadar 2,5 metr balandlik bo‘lib, ularni bir-biriga qo‘shganda, tepalikning umumiy balandligi kelib chiqadi, ya‘ni $2,42+1,30+1,50+2,50=7,72$ metr. Demak, bizgacha saqlangan tepalikning qadimgi yer sathidan, ya‘ni materikdan to hozirgi kungacha yetib kelgan tepalik balandligi deyarli 8 metrga borgan.

Qazishmalar yakunida to‘rt pog‘ona (terrasa)li ibodatxona maydonidan 30 ta xona o‘rni ochildi. Ochilgan xonalarning ko‘pchiligida altar-o‘choqlar, tosh altarlar, 9 ta skelet qoldiqlari (dastlabki xulosalarimizga ko‘ra, qabrlardagi jasadlar ayol kishiga tegishli va hayvon suyak qoldiqlari (vizual ko‘rinishidan it suyaklariga o‘xshash) aniqlandi.

Qazishmalar davomida ma‘lum bo‘ldiki, inshoot devorlarini tiklashdan avval uning fundamentiga yaxshilab ishlov berilib, platforma tayyorlanib, ustidan aylanma devorlar ko‘tarilgan. Uni qurish jarayonida paxsa va xom g‘ishtlardan foydalanilgan.

Inshootga kirish, shimol tomondan bo‘lib, u ibodatxonaga kirish eshigi nuqtasidan yuqoriga kengayib borgan pandus-koridor sifatida ob‘yektning markaziy zali tomon yo‘naltirilgan. Uning uzunligi 7,5 metr va eni o‘rtacha 70 sm ni tashkil qiladi. Markaziy zal to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida, maydoni uzunasiga (shimoldan janubga) o‘rtacha 12,15 metr, kengligi (g‘arbdan sharqqa) 5,65 metrni tashkil qiladi, ya‘ni markaziy zal 12,15x5,65 m o‘lchamda.

Markaziy zalga olib kiruvchi eshik qarama-qarshisiga to‘g‘rilab, uning sharqiy devoridan ibodatxona sharqiy sektoriga o‘tuvchi eshik ochildi. Ikki eshik oralig‘iga markaziy zalning birinchi bosqich davri bosh altar-o‘chog‘i joylashtirilgan. Afsuski, arablar (715-yilda Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi qo‘shinlar) bosqini davrida ushbu bosh altar-o‘choq-otashkada buzilib ketgan, uning o‘rni va tevarak atrofida jangda xalok bo‘lgan aholi vakillari, tahminimizga ko‘ra ayollar jasadlari o‘z holicha dafn etilgan, bosh altar-o‘choqning faqatgina kulxonasi (№6) saqlanib qolgan xolos. Bunday xulosaga kelishimiz uchun butun yodgorlik hududi bo‘ylab arablar bosqini vaqtidan keyingi davrlarga oid topilmalar aniqlanmadi.

Uchtepa-2 otashparastlik ibodatxonasining altar-o‘choqlari va tosh altar qurilmalari deb nomlangan paragrafida Uchtepa-2 ob‘yektida topilgan loydan va toshdan ishlangan altar o‘choqlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

“Uchtepa-2” arxeologik yodgorligini qazish jarayonlarida noyob topilmalar, jumladan, 50 dan ortiq olovga sig‘inish altar-o‘choqlar, 20 ta tosh qurilmalar, toshdan yasalgan bir necha xil turdagi sanam-ma‘budalar, ko‘plab otashparastlik bilan bog‘liq diniy-kult ashyoviy dalillar, xom loydan ishlangan devoriy nashq parchasi, surmatosh, don yoki boshqa turdagi o‘simliklarni yanchish uchun foydalanilgan tosh yorg‘uchoqlar, temir buyumlar, kulolchilik charxida yuksak darajada yasalgan nafis sopol idishlarning parchalari, qabrlar, shuningdek, qabr skeletlari bel qismidan temirdan yasalgan bel kamarining to‘qalari, qurbonlik hayvonining suyak parchalari va ular yonidan temir pichoq va ibodatxonada diniy marosimda ishlatilgan sopol idishlar aniqlandi.

“Uchtepa-2” ob’yektida topilgan galvirak xom loydan ishlangan altar o‘choqlar va ularning tavsifi deb nomlangan paragrafida diniy xarakterga ega bo‘lgan 50 dan ortiq altar-o‘choqlar va 20 ta tosh qurilmalarni (tosh altar) topilmalarni shartli ravishda 2 guruhga bo‘lindi. Birinchi guruhga loydan yasalgan, atrofi past bortli altarlar, ikkinchi guruhga mayda va o‘rtacha kattalikdagi toshlardan yasalgan tosh altarlar kiradi. Ushbu guruhga kiruvchi altar-o‘choqlarning shakli 3 xil: to‘g‘ri to‘rtburchak, aylana va ovalsimon shakllardan iborat. Yodgorlikdagi №1, №2, №8, №9, №14, №15, №16, №18, №20, №21, №23, №27, №28, №31, №33, №38, №43, №49, №50 altar-o‘choqlar ovalsimon, №7, №19, №22, №26, №35, №37, №39, №40, №42 altar-o‘choqlar to‘g‘ri to‘rtburchak va ayrimlari kvadrat, №5, №12, №13, №24, №25, №29, №30, №34, №45, №47, №51, №53 altar-o‘choqlar aylana shaklida bo‘lib, qolgan №3, №4, №10, №11, №17, №32, №36, №41, №44, №46, №48, №52 altar-o‘choqlar shaklini aniqlashning iloji bo‘lmadi.

Yodgorlikda topilgan 50 dan ortiq altar-o‘choqlar Markaziy Osiyo mintaqasida otashparastlikning qadimiy an‘analari bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ushbu topilmalar Farg‘ona vodiysining antik va ilk o‘rta asrlardagi diniy hayotining murakkabligi va boy madaniy merosi haqida guvohlik beradi. Bu tadqiqot Markaziy Osiyo tarixi va arxeologiyasini o‘rganishda muhim qadam bo‘lib, kelajakda ushbu yodgorlik va uning atrofidagi hududlarni yanada chuqurroq tadqiq etish uchun yangi yo‘nalishlarni ochib beradi.

“Uchtepa-2” ob’yektida topilgan toshdan ishlangan altar qurilmalari va ularning xarakteristikasi deb nomlangan qismda yodgorlikda aniqlangan tosh qurilmalar to‘g‘risida to‘xtalib o‘tilgan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, qazishmalar vaqtida altarlarni ikkinchi guruhga kiruvchi to‘g‘ri to‘rtburchak, ovalsimon, aylana va yarim oy shakldagi 20 dona tosh qurilmalar aniqlandi. Ushbu tosh qurilmalar A. Asqarov tomonidan “tosh-altar” deya ta’riflandi.

Qazishma jarayonida ochib o‘rganilgan 2, 6, 8, 10, 11, 13-tosh altarlar to‘g‘ri to‘rtburchak, 1, 3, 4, 5, 7, 9, 12, 14, 17. 19-tosh altarlar ovalsimon, 15, 18-tosh altarlar aylana va 16, 20-tosh altarlar yarim oy shaklida bo‘lgan.

Urf-odatlar, timsollar va rituallar tahliliga ko‘ra, tosh qurilmali altarlar tadqiq qilinayotgan yodgorlikda tizimlilik, mahalliy urfga aylangan me’moriy qadriyat asosida qurilgan. Bularning isboti sifatida mahalliy aholining ajdodlar ruhi, e’tiqodi, olov va kul bilan bog‘liq urf-odatlari, qurbonlik qilish hamda shukronalik marosimlari o‘tkaziladigan maxsus qurilmalarni ko‘rsatish mumkin.

Ikkinchi bob uchinchi paragraf **“Uchtepa-2” ob’yekting kulolchilik mahsulotlari** deb nomlanib, u “Uchtepa-2” yodgorligida aniqlangan kulolchilik mahsulotlari tavsif va tasnifi masalalariga bag‘ishlangan.

“Uchtepa-2” yodgorligida olib borilgan dala tadqiqotlarida hunarmandchilikning turli xil tarmoqlariga mansub ashyoviy dalillar qo‘lga kiritilgan bo‘lib, ular orasida kulolchilik mahsulotlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Sopol idishlar majmuasi ishlanish texnikasiga ko‘ra ikki guruxga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhga mansub buyumlar charxsiz, qo‘lda ishlangan qalin devorli, loyiga maydalangan kvarts tosh kukunlari qo‘shilgan, vazmin, qo‘polroq, uch bo‘lak lentasimon loydan yasalgan sopol qozonlarni tashkil etadi. Qo‘lda, charxsiz ishlangan sopol idishlar turiga qumg‘on, suvdon, xum va xumchalarni kiritish mumkin.

Ob’yektning sopol idishlar majmuasining aksariyatini kulolchilik charxida ishlangan sopol idishlar tashkil etadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, tiniq qizil angobli sopollarning tana devori juda yupqa bo‘lib, ularning aksariyati kulolchilik charxida ishlangan. Majmua voronkasimon oyoqli vazalar, kosalar, xurmachalar, ko‘za, sharsimon qorinli idishlar, tarelka, past bortli laganlar, piyola hamda dastali krujkalar, uzun oyoqli kuldonlar va boshqa buyumlardan iborat bo‘lib, oshxona, dasturxon, diniy marosim idishlari hisoblanadi. Ular ikki yarusli xumdonda pishirilgan. Ushbu turdagi idishlar antik davrning ikkinchi bosqichiga tegishli. Sopollar sifatini dag‘allashishi mazkur hududga “Sirdaryoning shimoliy-sharqidan kirib kelgan turkiyzabon ko‘chmanchi chorvadorlarning ta’siri bilan bog‘liq” degan g‘oyani ilgari surish imkonini beradi.

Uchinchi paragrafning birinchi qismi **“Uchtepa-2” ob’yekti kulolchilik mahsulotlarining madaniy qatlamlarda uchratish stratigrafiyasi** deb nomlanib, “Uchtepa-2” yodgorligi stratigrafik va planigrafik qazishma ishlari natijasida kuzatilgan 3 ta stratigrafik qatlamlarda aniqlangan kulollik majmualariga bag‘ishlangan. Eng quyi qatlamlarida ilk antik davrga oid sopollar kompleksi jamlangan bo‘lib, mil. avv. III–II asrlarga oid. Ikkinchi – o‘rta madaniy qatlam so‘nggi antik davrga tegishli ekanligi aniqlanib, ushbu qatlamda uchraydigan sopol buyumlarining ko‘pchiligida qoramtir, qisman qizg‘ish va jigarrang angobli turli xil idish siniqlari uchraydi. Ularning devorlari ilk antik davr sopol buyumlariga nisbatan qalinroq, shaklida ham dag‘allashish elementlari uchraydi. Uchinchi – yuqori madaniy qatlam bag‘rida uchraydigan kulolchilik mahsulotlari antik davr sopollaridan keskin farq qiladi. Ular asosan, qo‘lda yasalgan qo‘pol sopol buyumlardir. Qazishmalar natijasida ko‘plab sopol buyumlarning parchalari topilgan bo‘lsa-da, ammo yodgorlikning davriy sanasini belgilashda ularning 20% shakl beruvchi (gardish va taglik) va tirnama bezakli sopol parchalaridan iborat. Ularning gardish diametri 7 sm. dan to 52 sm. gacha (92%), tagliklarning diametri esa 9 sm. dan to 58 sm. gacha (8%) bo‘lib, ularga asoslanib sopol idishlar majmuasi jadvali ishlab chiqilgan.

Uchinchi paragrafning ikkinchi qismi **Quyi qatlam sopol idishlar tipologiyasi va qiyosiy tahlili** deb nomlanib, “Uchtepa-2” yodgorligi quyi qatlamlaridan topilgan kulolchilik mahsulotlarining tiplari va qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan. Bu qismda quyi qatlamda aniqlangan piyolalar, kosalar, va xurmachalar tipologiyasi va qiyosiy tahlili keltirilgan. Bunday ko‘rinishdagi

idishlarni Farg‘ona vodiysining Mingtepa, Quyultepa⁵⁵, Simtepa, Sultonobod, Axsikent⁵⁶, Simtepa-II⁵⁷ va Marg‘ilonsoy havzasidagi Qizlartepa⁵⁸ yodgorliklarida aniqlangan idishlar bilan qiyoslangan. Mazkur idishlar yasalishi, loyi tarkibi va shakliga ko‘ra Farg‘ona vodiysining keng o‘rganilgan yodgorliklari sopollar majmualarida uchraydigan idishlardan ko‘p farq qilmasligi aniqlangan.

Uchinchi paragrafning uchinchi qismi **“Uchtepa-2” o‘rta qatlam sopollar kompleksi** deb nomlanib, “Uchtepa-2” yodgorligi ikkinchi gorizontida aniqlangan sopollar kompleksida jami 40 dan ortiq turli katta va kichik hajmdagi ochiq turdagi idish gardishlari mavjud bo‘lib, ularning aksariyat qismi ko‘za, kosa hamda xurmachalardan iborat. Ushbu sopollar kompleksida sopollar asosan ochiq turdagi idish gardishlari hisoblanib, ularga asosan qizil, qizg‘ish, kulrang, och va to‘q jigarrang angob berilgan. So‘nggi antik davri sopollar kompleksidagi idishlarda angob sifati ilk antik davr sopollariga nisbatan bir oz sifatsizroq ko‘rinadi, chunki deyarli barcha idishlar angoblari ko‘p qismlarida o‘chib ketgan. Ushbu idishlar Farg‘ona vodiysining Simtepa, Sultonobod, Chodak va Qizlartepa yodgorliklari sopollar komplekslarida uchraydi⁵⁹. Axsikentning AK-6 komplekslari orasida shu turdagi idishlar uchraydi⁶⁰. A. Anarbayev ushbu idishlarni milodiy III–IV asr boshlari bilan davrlashtiradi⁶¹. Shuningdek, ushbu idish analoglari Norin va Qoradaryo oralig‘ida joylashgan Kuyultepa yodgorligining B-I kompleksida ham uchraydi⁶². *Bo‘yin qismidan qorin qismiga o‘tishda qayrilgan kosalar (miska s peregibom)*. Bunday ko‘rinishdagi kosalarga o‘xshash kosa Uchtepa-2 yodgorligining o‘rta qatlam sopollar kompleksida atigi 3 dona aniqlandi. Ular fanda asosan, bo‘yin qismidan qorin qismiga o‘tishda qayrilgan kosalar (chasha, miska s peregibom – rus tilida) sifatida qabul qilingan. Bunday ko‘rinishdagi idishlar analoglari Farg‘ona vodiysidagi Simtepa⁶³, Axsikent⁶⁴, Kuyuktepa⁶⁵, Quyultepa⁶⁶, Oroltepa⁶⁷,

⁵⁵ Матбабаев Б., Чен Линг, Исамиддинов М., Алохунов А., Абдулгазиева Б., Илясова С., Хошимов Х. Археологические работы на городище Мингтепа... – С. 95. Рис. 3. 1, 6; Исамиддинов М., Матбабаев Б., Кучкаров Т. Предварительное изучение керамики поселения Куялтепа Северной Ферганы // ИМКУ. Вып. 18. – Ташкент: Фан, 1983. – С. 92. Рис. 1. А-2. 2.

⁵⁶ Горбунова Н. Г., Козенкова В. И. Сым-тепе – поселение в Фергане // АСГЭ. Вып. 16. – Ленинград: Аврора, 1974. – С. 99. Рис. 6. 1; Абдулгазиева Б. Исследование поселения Султанабад... – С. 14. Рис. 1. 15; Матбабаев Б., Чен Линг, Исамиддинов М., Алохунов А., Абдулгазиева Б., Илясова С., Хошимов Х. Археологические работы на городище Мингтепа... – С. 95. Рис. 3. 4; Анарбаев А. А. Ахсикет – столица древней Ферганы. – Ташкент. Tafakkur, 2013. – С. 371. Табл. I. 3.

⁵⁷ Горбунова Н. Г., Козенкова В. И. Сым-тепе – поселение в Фергане... – С. 99. Рис. 8. 3.

⁵⁸ Анарбаев А. А., Максудов Ф. А. Древний Маргилан... – С. 60, Рис. 19, 4, 5, 7, 9.

⁵⁹ Горбунова Н. Г., Козенкова В. И. Сым-тепе – поселение в Фергане... – С. 101. Рис. 8. 4; Абдулгазиева Б. Исследование поселения Султанабад... – С. 15. Рис. 2. 14; Чуланов Ю. Г. Некоторые новые памятники Северной Ферганы... – С. 247. Рис. 2. 12; Анарбаев А. А., Максудов Ф. А. Древний Маргилан... – С. 71. Рис. 29. 2.

⁶⁰ Анарбаев А. Ахсикент – столица древней Ферганы... – С. 398. Таб. XXVIII. 1, 2.

⁶¹ Yuqoridagi asar... – С. 398.

⁶² Исамиддинов М., Матбабаев Б., Кучкаров Т. Предварительное изучение керамики поселения Куялтепа Северной Ферганы... – С. 92. Рис. I. Б-1. 13.

⁶³ Горбунова Н. Г., Козенкова В. И. Сым-тепе – поселение в Фергане... – С. 101. Рис. 7. 4.

⁶⁴ Анарбаев А. Ахсикент – столица древней Ферганы... – С. 395. Табл. XXIII. 2.

⁶⁵ Кудратов С. С. Поселения Левобережья р. Нарын в Фергане... – С. 193, 197. Рис. 11. 6, Рис. 15. 3.

⁶⁶ Исамиддинов М., Матбабаев Б., Кучкаров Т. Предварительное изучение керамики поселения Куялтепа Северной Ферганы... – С. 92. Рис. I. Б. 1. 6.

⁶⁷ Горбунова Н. Г., Оболдуева Т. Г. Поселение Арал-тепе в Фергане... – С. 90. Рис. 6. 6.

5a manzilgohi⁶⁸ va shu kabi boshqa yodgorliklarda uchraydi. Xurmachalar shakli sharsimon, kalta bo‘yli, diametri 24–26 sm, tashqi tomondan to‘liq, ichki tomondan gardish qismining o‘zida to‘q jigarrang angob bilan qoplangan.

Bu kabi xurmalar Farg‘ona vodiysini dastlabki tadqiqotchisi B. A. Latinin tomonidan XX asrning 30-yillaridayoq Norin va Qoradaryo oralig‘i hududida joylashgan Qo‘g‘aytepa, Kuyuktepa, Quyultepa kabi yodgorliklarda aniqlangan⁶⁹. Flyaga (suvdon)lar o‘rta bosqich davri idishlari keng og‘izli, ulovda suv tashish uchun qulay bo‘lgan qalin devorli kululchilik mahsulotlari hisoblanadi. Bunday flyagalar (suvdon) Mingtepa, Axsikent, Qorabuloq, Chorku-II va Vorux qishlog‘idagi mozor qo‘rg‘onlarda aniqlangan⁷⁰. Tirnama bezakli idishlar milodiy I–VI asrlarda mavjud bo‘lgan Farg‘ona vodiysi uchun xos qizil angobli tirnab, bezak berilgan sopol idishlarga xos⁷¹. Dastlab idishlar kulolchilik charxida tayyorlanib, keyin qizil angob berilgan. Sopol idish xumdonida pishirilgandan keyin o‘tkir tig‘li buyumlar bilan tirnab bezak berilgan. “Uchtepa-2” yodgorligida aniqlangan tirnama bezakli idishlarning deyarli katta qismi xurmacha idishlar turiga mansub. Tadqiqotlar davomida Uchtepa-2 yodgorligi sopollaridagi tirnab bezalgan naqshlar ko‘rinishiga qarab 4 turga ajratildi: to‘r, to‘lqin, siniq chiziqlar, spiralsimon. Ular Norin va Qoradaryo oralig‘i hududida joylashgan bir qancha yodgorliklardan Kuyuktepa⁷², Oroltepa⁷³, Quyultepa⁷⁴, Qo‘g‘aytepa⁷⁵ hamda vodiyning sharqiy qimidagi Sultonobod⁷⁶, Mingtepa⁷⁷, G‘ayrattepa⁷⁸, shuningdek, vodiyning janubiy qismi yodgorliklaridan Simtepa⁷⁹, Karkidon guruhi yodgorliklari⁸⁰, Qizlartepa⁸¹,

⁶⁸ Горбунова Н. Г. Памуатники Каркидонской группы в Южной Фергане... – С. 60. Рис. 13. 10.

⁶⁹ Латынин Б. А. Работы в районе проектируемой электростанции на р. Нарыне в Фергане (Гидроэлектропроект) // Известия ГАИМК. Вып. 110. Археологические работы на новостройках. Т. II. – Ленинград: 1935. – С. 136; Бернштам А. Н. Историко-археологические очерки Центрального Туан-Шаня и Памиро-Алая... – С. 231. Рис. 93.

⁷⁰ Matboboyev B., Hoshimov N., A‘loxunov A., Rahmonov Z. Mingtepa shahar xarobasida 2020-yilda o‘tkazilgan arxeologik tadqiqotlar // O‘zbekistonda arxeologik tadqiqotlar. – Samarqand. – Б. 95–106; Анарбаев А. Ахсикент – столица древней Ферганы... – С. 379, 387, 392, 402. Табл. VIII. 6–10, Табл. XIII. 7–8, Табл. XX. 4–5, Табл. XXXII. 1–4; Горбунова Н. Г. Кугайско-Карабулакская культура Ферганы // СА. – 1983. – №3. – С. 27. Рис. 3. 8, 12; O‘sha muallif: Некоторые особенности формирования древних культур Ферганы // АСГЭ. Вып 25. – Ленинград: Искусство, 1984. – С. 103. Рис. 2. 52, 58.

⁷¹ Горбунова Н. Г. Культура Ферганы в эпоху раннего железного века // АСГЭ. Вып. 5. – Ленинград. Изд-во Гос. Эрмитажа. 1962. – С. 111–114; Максудов Ф. А. Некоторые вопросы семантики процарапанного орнамента на керамике Маргилана (по материалам Кызлартепа) // ИМКУ. Вып. 28. – Самарканд: Сўғдиёна, 1997. – С. 53–59; Кудратов С. Орнаментированная керамика из поселения Куюктепа // ОНУ. – 1988. – №12. – С. 35–37; Poziljonov A. R. Antik davrga oid tirnab bezatilgan Sharqiy Farg‘ona sopollar tahlili // Journal of Education, Ethics and Value Vol. 2, No. 3. 2023. – Pp. 29–33.

⁷² Кудратов С. С. Поселения Левобережуа р. Нарын в Фергане... – С. 190. Рис. 8. 11–23.

⁷³ Горбунова Н. Г., Оболдуева Т. Г. Поселение Арал-тепе в Фергане... – С. 92. Рис. 7–8.

⁷⁴ Исамиддинов М., Матбабаев Б., Кучкаров Т. Предварительное изучение керамики поселения Куюлтепа Северной Ферганы... – С. 92. Б-1. 12, Б-2. 3-11.

⁷⁵ Латынин Б. А. Работы в районе проектируемой электростанции на р. Нарыне в Фергане (Гидроэлектропроект)... – С. 144–145. Рис. 114, 115.

⁷⁶ Абдулгазиева Б. Исследование поселения Султанабад... – С. 16. Рис. 3. 1–6.

⁷⁷ Матбабаев Б., Янши Ж., Исамиддинов М., Тао Лю, Абдуллаев Б., Хошимов Х., Алохунув А., Рахмонов З. Археологические исследования городища Мингтепа в 2013 году // Археологические исследования в Узбекистане 2013–2014 годы. Вып. 10. – Самарканд. 2016. – С. 195. Рис. 6. 2.

⁷⁸ Козенкова В. И. Гайрат-тепе (К истории поселений Ферганы первой половины I тысячелетия) // СА. – 1964. – №3. – С. 230. Рис. 5. 5–7.

⁷⁹ Горбунова Н. Г., Козенкова В. И. Сым-тепе – поселение в Фергане... – С. 99–101. Рис. 6. 8; Рис. 7. 11–12; Рис. 8. 9–12.

⁸⁰ Горбунова Н. Г. Памуатники Каркидонской группы в Южной Фергане... – С. 61. Рис. 14. 3–7.

Ko‘prikboshi mozor-qo‘rg‘onlari⁸², Shimoliy Farg‘ona hududidagi Varzik mozor-qo‘rg‘onlari⁸³, Axsikent⁸⁴, Balandtepa⁸⁵, kabi yodgorliklar sopollar kompleksida tirnama sopollar aniqlangan. Qadahlar ichki va tashqi tomonlariga qizg‘ish angob berilgan va har ikki tomoni ham sayqallangan. Idish juda nafislik bilan kulolchilik charxida yasalgan. Bo‘yoqdan so‘ng ichki va tashqi tomoniga ohista mato yurgizilgan. Buni idishning har ikki tomonidagi izlardan bilishimiz mumkin. Bunday idishlar Farg‘ona vodiysining Kalamishtepa, Maydatepa va shu kabi boshqa yodgorliklarida uchraydi⁸⁶.

Uchinchi paragrafning to‘rtinchi qismi **“Uchtepa-2” yuqori qatlam sopollar kompleksi** deb nomlanib, yuqori bosqich davri sopollar kompleksidagi qozonlar, xurmalar va xumlarning tavsif va tasnifiga bag‘ishlangan. Qozonlar antik va ilk o‘rta asrlar davri sopollar kompleksida o‘ziga xos o‘rin tutib, asosan ikki xil ko‘rinishdagi idishlar kuzatildi. Ularning birinchi ko‘rinishi gardish qismi, aniqrog‘i lab tepa qismi tekis bo‘lib, tashqi tomonga bir oz uchli tarza qayrilgan. Ikkinchi ko‘rinishdagi qozonlar gardishlari asosan ham ichki, ham tashqi tomonga bo‘rtib chiqqan T-simon ko‘rinishga ega. AK-3 sopollar kompleksidagi sharsimon va yarim sharsimon, gardishi T-simon ko‘rinishga ega bo‘lgan qozonlar xilma-xilligi Uchtepa-2 yodgorligi qozonlari bilan yaqin o‘xshashlikka ega⁸⁷.

Barcha sopollar majmualari turli mualliflarning davrlashtirishiga muvofiq keladi. Jumladan, B. A. Litvinskiyning G‘arbiy Farg‘ona mozor qo‘rg‘onlari sopollari, N. G. Gorbunovning Farg‘onaning eramizning birinchi asrlariga oid manzilgohlari, G. A. Brikinaning Janubi-G‘arbiy Farg‘ona, V. I. Kozenkovaning – Sharqiy Farg‘ona, M.H. Isamiddinovning – Farg‘onaning shimoli-sharqiy qismi, B. H. Matboboyevning – Farg‘ona vodiysi shahar va manzilgohlari, S. R. Baratovning – Shimoliy Farg‘ona qurum va mug‘xonalari hamda A. Anarboyevning – Axsikent, S. Qudratovning Norin va Qoradaryo oralig‘i hududlari yodgorliklari va F. Maqsudovning – Marg‘ilon bo‘yicha davrlashtirishlari shular jumlasidandir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Uchtepa-2 arxeologik yodgorligi me‘moriy yechimi va qiyosiy tahlili”** deb nomlanib, uch paragrafdan iborat. Birinchi paragraf **“Uchtepa-2 ob‘yektining me‘morchiligi qiyosiy tahlili”** deb nomlanib, Markaziy Osiyo va qadimgi sharq diniy me‘morchilik inshootlari va an‘anasi tizimida ushbu inshootning qiyosiy o‘xshashliklari tahlil qilinadi. Ko‘shk va ibodatxona oshyonlari qurilishida, ularning interyerini hosil qilishda asosan loy va pishgan g‘isht materiallaridan foydalanilgan. Markaziy Osiyo vohalari qurilish sohasida pishiq g‘isht va tosh juda kam ishlatilgan. Antik davrdagi identifik

⁸¹ Максудов Ф. А. Некоторые вопросы семантики процарапанного орнамента на керамике Маргилана (по материалам Кызлартепа) // ИМКУ. Вып. 28. – Самарканд, 1997. – С. 54. Рис.1.

⁸² Рахманов З. Некоторые вопросы хронологии памуатников первых веков нашей эры Ферганы / Евразийский союз ученых (ЕСУ). «Актуальные проблемы в современной науке и пути их решения». XXXI международная научно-практическая конференция. – Москва, 2016. – №10 (31). Част 1. – С. 10. Рис. 1. 3–4.

⁸³ Баратов С. Р. Культура скотоводов Северной Ферганы... – С. 247. Рис. 14. 10–13, 18–21.

⁸⁴ Анарбаев А. Ахсикент – столица древней Ферганы... – С. 400–401. Табл. XXX. 10, Табл. XXXI. 5–6.

⁸⁵ Матбабаев Б. Х. К истории культуры Ферганы в эпоху раннего средневековья... – С. 132. Рис. 12. 1–2.

⁸⁶ Горбунова Н. Г., Оболдуева Т. Г. Городище Каламыш-тепе в Фергане... – С. 171. Рис. 4. 17; Брыкина Г. А. Городище Майда-тепе... – С. 120. Рис. 45. 1, 7.

⁸⁷ Анарбаев А. Ахсикент – столица древней Ферганы... – С. 379. Табл. IX. 1–5.

me'morchilik an'alarining jamoaviy xarakteridagi shaharlar, qal'alar va mahobatli imoratlar qurish an'analari o'zgardi. Uchtepa-2 ob'yekti mil. avv III – milodiy VIII asrlarga oid bo'lib, yodgorlikda ikkita qurilish davri kuzatiladi. Undagi me'morchilik an'analari yuqorida tilga olgan umumiy unsurlarni ko'p qismini o'zida aks ettiradi. Shu kabi qurilish belgilarga ega bo'lgan inshootlar Farg'ona vodiysida Sultonobod⁸⁸, Koson⁸⁹, G'ayrattepa⁹⁰, Maydatepa⁹¹, Qoratepa-1⁹² kabi yodgorliklarda kuzatiladi. Biroq, oxirgi yodgorlik markaziy xonasida altar otashgoh aniqlanmagan bo'lsa-da, G. A. Pugachenkovaning klassifikatsiyasiga ko'ra, ushbu inshootni 1-guruhga taalluqli deb hisoblash mumkin. Markaziy xona barcha xonalarni o'zaro va asosiy kirish qismiga bog'lash vazifasini ham bajargan. Shu kabi komplekslar jamoaviy diniy xarakterga ega bo'lgan.

O'rta Osiyo hududida bir qancha otashparastlikka oid diniy monumental inshootlar o'rganilgan, lekin zardushtiylikka oid ibodatxona va diniy e'tiqodlar rivojlanish bosqichlari to'liq kuzatilmagan. Bunga asosiy sabab, O'rta Osiyoda topib o'rganilgan ibodatxonalarda zardushtiylik doimo mahalliy diniy e'tiqodlar bilan uyg'unlikda bo'lganligidir⁹³.

Tadqiqot qilinayotgan Uchtepa-2 ob'yekti otashparastlik, suv kulti, zardushtiylik va ajdodlar ruhi e'tiqodi unsurlarni mujassamlashtirgan jamoa maskani vazifasini o'tagan. Bunda otashgohlar, mehroblar, zardushtiylik atamaları va qurilish an'alarini qiyosiy tahlili, ob'yektning me'moriy vazifasini aniqlash uchun Qadimgi Sharq hamda Markaziy Osiyo diniy me'morchilik namunalari tahlili, yodgorlikda aniqlangan ajdodlar ruhi topinchi ashyolarini qiyosiy va ilmiy talqin qilgan holda shunday xulosaga kelindi.

Uchinchi bob ikkinchi paragraf “**Altar-o'choqlarning parallellari va qiyosiy xarakteristikasi**” deb nomlanib, ob'yektda joylashgan altar-o'choqlarning xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Otashparastlik bilan bog'liq altar-o'choqlarning eng qadimiylari O'rta Osiyoning janubiy hududlaridagi bronza davri yodgorliklarida uchraydi. Masalan, Jarqo'ton ilk shahri 5-tepaligi doirasida ochilgan 4 xonali patriarxal oila altarxonasida otashkada me'moriy qurilma sifatida o'z aksini topgan⁹⁴. Mehroblar, diniy markazlar, ibodatxonalar va topinch xonalari me'moriy unsurlarining markaziy qurilmasi hisoblanib, samoviy va sakral xarakterga ega bo'lgan qurilmadir.

Insonlar e'tiqod marosimlarida turli xil altar shakllaridan foydalangan bo'lib, ularni vazifasiga ko'ra bir qancha turlarga ajratish mumkin. Birinchi turdagi

⁸⁸ Абулгазиева Б. Храмы огнепоклонников Ферганы / Верованиуа и култы домусулманской Средней Азии. – М., 1997; O'sha muallif: Исследование поселения Султанабад / Средняя Азия, Археология, История, Культура. Материалы международной конференции посвященной 50-летию научной деятельности Г. В. Шишкиной. – Москва. Гос. музей Востока, 2000. – С. 40–44.

⁸⁹ Бернштам А. Н. Историко-географическое очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая // МИА. – 1952. – №26. – С. 239.

⁹⁰ Козенкова В. И. Городище Гайрат-тепе // СА. – 1964. – №3. – С. 226.

⁹¹ Брыкина Г. А. Городище Майда-тепе // КСИА. – М., 1973. Вып. 136. – С. 115.

⁹² Ахроров И. Селское поселение античного времени в Чустском районе // ИМКУ. Вып. 15. – Ташкент: Фан, 1979. – С. 57–63.

⁹³ Кубаев С. Ш., Насриддинов Ш. Н., Караева З. А. Сўгд ва Фарғонада олов ва кул билан боғлиқ диний эътиқодлар ҳақида / Фарғона водийси тарихининг долзарб муаммолари. Республика илмий анжуман материаллари. – Наманган, 2020. – Б. 25–34.

⁹⁴ Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Ташкент, 1977.

altarlar turg'un holatda asosan to'g'ri burchakli kvadrat, aylana yoki yarim aylana shaklda xona markazida hamda devorga birlashtirilgan holda uchratiladi. Ikkinchi turdagi altarlar ko'chma xarakterga ega bo'lib, vazasimon tutatqidonlar, chiroqlar va tova kabi idishlar hisoblanadi. Uchinchi turdagisi esa, ochiq osmon ostida yirik o'tin bo'laklaridan tashkil qilingan olov otashkadalari (mangu olov – olovxona) hisoblanadi. R. H. Sulaymonovning ta'kidlashicha, Sosoniylar Eronida davlat, shahar, qabila yoki oilaviy altarlar urf bo'lgan. Uning fikricha, ilk o'rta asrlar davri Markaziy Osiyo ibodatxonalarida asosan, ikki xildagi altarlar kuzatilib, ular to'g'ri to'rtburchak va taqasimon shaklda bo'lgan⁹⁵.

Altar qurilmalari antik va ilk o'rta asrlarda janubiy va shimoliy mintaqalarda o'ziga xos taraqqiyot yo'liga ega edi. Markaziy Osiyoning janubiy mintaqalari tarixiy-madaniy o'lkalarida qayd qilingan altarlar eneolit davridan boshlab aylana va kvadrat shaklda qurilib foydalanib kelingan. Ilk temir davrida Tillatepa va Kuchuktepa yodgorligida xochsimon altar kuzatilgan bo'lib, unda xaoma va barsom qurbonligi keltirilgan⁹⁶.

Farg'ona vodiysida bu borada o'ziga xos an'analar mavjud bo'lib, ushbu an'analarda mahalliy e'tiqod unsurlari bilan birga budda dini va so'g'd aholisi e'tiqodi qorishuvi kuzatiladi. Shunday ibodatxonalardan biri mil. avv. III–II asrlarga oid Sultonobod manzilgohida o'ziga xos xoch shaklidagi altar aniqlangan⁹⁷. Yana bir shunga o'xshash, milodiy VII–VIII asrlarga oid, markazida to'g'ri to'rtburchak shaklida ibodatxonasi bo'lgan joy Zavraktepada aniqlangan. Ushbu ibodatxonaning markazida to'g'ri to'rtburchakli xonada 15 sm qalinlikda muqaddas kul saqlangan. Uning janubi-sharqiy tomonlari 43x67 sm bo'lgan o'choq qoldig'i aniqlangan. Xonaga kirish uchun atrofida aylana koridor hosil qilingan⁹⁸. Fikrimizcha, tadqiqot ob'yekti hisoblangan Uchtepa-2 yodgorligining topografiyasi va tuzilishi bo'yicha eng yaqin o'xshashlikni, analogiyani aynan Zavraktepada kuzatish mumkin.

Uchtepa-2 yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasi Farg'ona vodiysining diniy tarixiga oid yangi nuqtai nazar taqdim etilgan. Ushbu topilmalar hududning diniy an'analari va madaniyatining o'zaro ta'sirlashuv jarayonlarida muhim rol o'ynaganligini isbotlaydi.

Mazkur bobning uchinchi paragrafi **“Tosh altarlar parallellari va qiyosiy xarakteristikasi”** deb nomlanib, tadqiqotlar jarayonida aniqlangan 20 ta tosh qurilmalarning xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Farg'ona vodiysi uchun ilk bor toshlar, altarlar va ularning tarixi xususida ma'lumotlar jamlandi. X. Oxunboboyevning ta'kidlashicha, pars qabilalarida **“Dare-mehr”** (qurbonlik marosimi) atamasi saqlanib qolgan bo'lib, ushbu diniy marosimlarda uchta qurbonlik keltirilgan. Birinchisi **“Xaoma qurbonligi”**, ikkinchisi **“Ajodlar ruhi uchun qurbonlik”**, uchinchi qurbonlik esa **“Gul qurbonligi”** hisoblanadi. Rituellar ta'rifida **“dare-mexr”**da

⁹⁵ Сулейманов Р. Х. Древний Нахшаб... – С. 266.

⁹⁶ Аскарлов А. А., Альбаум Л. И. Поселение Кучуктепа. – Ташкент: Фан, 1979. – С. 110.

⁹⁷ Абулгазиева Б. Храмы огнепоклонников Ферганы / Верования и культы домусулманской Средней Азии. – М., 1997; О'sha muallif: Исследование поселения Султанабад / Средняя Азия, Археология, История, Культура / Материалы международной конференции посвященной 50-летию научной деятельности Г. В. Шишкиной. – Москва. Гос. музей Востока, 2000. – С. 40–44.

⁹⁸ Абулгазиева Б. Раннесредневековое поселение Заурактепе в Восточной Фергане // ОНУ. – 1986. – №2. – С. 41.

asosiy figura ushbu tosh plitalari hisoblanadi. Tosh plitalardan biri suv solingan vaza uchun qo'yilgan bo'lsa, ikkinchisi olov yoqilgan vaza uchun taglik vazifasini o'tagan.

O'z o'rnida shuni qayd etish mumkinki, ushbu atama va uning amallari qadimgi Mitraizm e'tiqodi bilan bog'liq bo'lib, shu kabi qurilmalar qadimgi quyosh xudosiga atab qurilgan diniy-me'moriy majmualarda ham kuzatiladi. Jumladan, qadimgi Jarqo'ton, Marv, Sangirtepa, Ko'ktepa, Jartepa, Shoshtepa, Tog'aloq-1 kabi yodgorliklarda ham shunga o'xshash altarlarni uchratish mumkin.

“Uchtepa-2” yodgorligida aniqlangan tosh altarlari yuqorida tilga olingan qadimiy shakllarni takrorlagan holda, o'ziga xos mahalliy uslubda qurilgan. Jumladan, to'rtburchak, aylana, ovalsimon hamda yarim oy shakllari mavjud. Aylana shakldagi tosh qurilmali altarlari vazifasiga ko'ra xo'jalik egasi o'chog'i ramzi bo'lib, undagi marosimlar odatda ayollar tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu tosh altarlari ajdodlar ruhiga qurbonlik keltirish yoki xo'jalik qut barakasi farovonligini saqlash uchun maxsus qurilgan. Yodgorlikning ko'pchilik tosh qurilmalarining ustida kul yoki olov izlari kuzatilmaligiga sabab ushbu qurilmalar ustida to'g'ridan-to'g'ri olovning yoqilmasligi, balki maxsus idishda, sopoldan yasalgan otashgoh va tutatqidonlarda saqlanganligi bilan izohlash mumkin.

Ushbu qurilmalar animizm, jamoaviy va individual ajdodlar ruhi e'tiqodida alohida o'rin tutadi. Misol uchun, Ustrushona aholisi animistik e'tiqodida tosh kulti bilan bog'liq urf-odatlar zahirida inson ruhining mavjudligi va unga bo'lgan ishonchning mustahkamligi aks etadi. Ustrushona aholisi orasida yaqin vaqtlargacha inson vafot etganini uning qarindoshlariga aytish uchun “falonchi toshga aylanib qolibdi” degan iboralar ishlatilib kelingan⁹⁹.

Uchtepa-2 yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Farg'ona vodiysining antik va ilk o'rta asr tarixiga oid yangi ma'lumotlarni taqdim etdi. Tadqiqot natijalari ushbu hududda diniy marosimlar va ibodat uchun mo'ljallangan turli shakldagi tosh qurilmalarning mavjudligini ko'rsatib, Farg'ona vodiysining diniy hamda madaniy an'analari haqida qimmatli ma'lumotlar berdi.

XULOSA

“Uchtepa-Buloqmozor majmuasi: Uchtepa-2 arxeologik yodgorligining tarixiy topografiyasi va stratografiyasi” mavzusidagi dissertatsiya doirasida olib borilgan tadqiqot natijasida va arxeologik materiallarning qiyosiy tahlili asosida quyidagi **xulosalar**ga kelindi:

1. Tarixiy manbalarda Norin va Qoradaryo oralig'i hududlari, ya'ni hozirgi Namangan viloyatining Uychi, Uchqo'rg'on, Norin, Andijon viloyatining Izboskan tumanlari hududlari qadimgi va o'rta asrlarda Miyon-Rudon muzofoti deb nomlangan.

Yozma manbalarni arxeologik materiallar bilan qiyosiy o'rganish asosida qadimgi Haylomning joylashgan o'rnini hozirgi Uchtepa qishlog'ining O'rta, Qora xotin va Past mahallalari bo'lishi ehtimoli ko'proq, degan fikrga kelindi. Yozma

⁹⁹ Мамиров О. Ў. Қадимги Уструшона аҳолисининг аجدодлар руҳи эътиқоди (археологик ва этнографик материаллар асосида) / Бронза ва илк темир асрида Марказий Осиё халқларининг моддий маданияти. Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Самарқанд, 2023. – Б. 149–155.

manbalardagi hududlar, shahar va qishloq makonlarni mavjud arxeologik yodgorliklar bilan lokalizatsiya qilish qiyin. Shunga qaramasdan manbalarda va hozirda aniq belgilangan arxeologik yodgorliklar orqali, ular orasidagi masofalarni inobatga olib qolgan joylar lokalizatsiya qilinadi.

2. Uchtepa-2 ning ilk o'rta asrlar davri me'moriy qurilmalar rejasi o'rganilgach, arxeologik qazishmalar pastki madaniy qatlamlarni o'rganishga qaratildi. Markaziy reper nuqtasidan 2,30 metr chuqurlikda ibodatxona devorlari, ulardan 1 metr chuqurroq pol satxida altar-o'choqlar, qabrlar ochildi. Topilmalar ikki xronologik bosqichlarga tegishli bo'lib, quyi bosqich kulolchilik mahsulotlari tiniq qizil rangda angoblangan sopol parchalaridan iborat (mil.avv. III–II va milodiy era boshlariga tegishli) bo'lsa, ulardan yuqoriroq gorizontlarda uchraydigan sopol parchalari qoramtil qizil rangda angoblangan so'nggi antik davriga (milodiy III–IV asrlar) tegishli kulolchilik mahsulotlaridan iborat ekanligi aniqlandi.

3. Tahlillarga ko'ra, xulosa qilish mumkinki, Uchtepa-2 yodgorligi markaziy zalida aniqlangan markaziy altar-o'choq va uning atrofidagi sufa hamda tizimli ravishda qurilgan ko'plab altar-o'choqlar, 20 ga yaqin tosh qurilmalar diniy urf-odatlar bilan bog'liq bo'lib, fikrimizcha, o'sha davr mahalliy urfga aylangan me'moriy qadriyat asosida qurilgan. Bunga Farg'ona vodiysining boshqa geografik nuqtalarida arxeologik tadqiqotlarda aniqlangan ayrim muqaddas tegralarni misol tariqasida keltirish o'rinli¹⁰⁰. Shuningdek, bu holatni o'sha davr aholisining muqaddas olovga e'tiqodi bilan bog'liq urf-odatlari hamda qurbonlik marosimlari tasdiqlaydi.

Uchtepa-2 yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Farg'ona vodiysining antik va ilk o'rta asr tarixiga oid yangi ma'lumotlarni taqdim etadi. Tadqiqot natijalari ushbu hududda diniy marosimlar va ibodat uchun mo'ljallangan turli shakldagi tosh qurilmalarning mavjudligini ko'rsatib, Farg'ona vodiysining diniy hamda madaniy an'analari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Bu esa o'z navbatida mintaqaning qadimgi tarixini yanada chuqurroq tushunishga va kelajakdagi tadqiqotlar uchun yangi yo'nalishlar ochib berishiga turtki bo'ladi.

4. "Uchtepa-2" yodgorligi sopollar majmualarining stratigrafik va qiyosiy tahlillarini o'rganish jarayonida mazkur yodgorlikning o'zlashtirilish davri uchta bosqichga bo'lindi. Mazkur jarayonlarni shartli ravishda "Uchtepa-2" sopollar kompleksi bosqichlari deb qabul qilish muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan, ushbu bosqichlar:

"Uchtepa-2" 1). Miloddan avvalgi III asr – milodiy II asrning birinchi yarmi.

"Uchtepa-2" 2). Milodiy II asrning ikkinchi yarmi – milodiy III–IV asrlar.

"Uchtepa-2" 3). Milodiy IV asr oxirlari – VIII asr boshlarigacha bo'lgan davrlarni o'z ichiga oladi.

5. Qazishma jarayonida ochilgan me'moriy qurilma qoldiqlari va topilmalar assortimentiga ko'ra, ushbu yodgorlik qadimgi shahar aholisining "Quyoshga sig'inadigan muqaddas ibodatxona"si, diniy mafkuraviy markazi bo'lgan, degan

¹⁰⁰ Брыкина Г. А. Карабулак. – Москва. Наука, 1974. – С. 29. Рис. 19; Кубаев С.Ш., Насриддинов Ш.Н., Караева З.А. Сўғд ва Фарғонада олов ва кул билан боғлиқ диний эътиқодлар ҳақида // Фарғона водийси тарихининг долзарб муаммолари. Республика илмий анжумани материаллари. 6 июн 2020 йил. – Наманган. 2020. – Б. 25-37.

xulosani beradi. Bu Farg‘ona vodiysida bunday ko‘rinishga ega bo‘lgan ilk bor to‘liq ochilgan noyob yodgorlik ekanligini namoyish etadi. Arxeologik topilmalar tahliliga ko‘ra, ibodatxonaga bundan 2200-2100-yillar oldin asos solingan. Ibodatxona arablar bosqini (Qutayba binni Muslim) lashkarlari tomonidan vayron etilib, qayta tiklanmagan. Uchtepa-2 ob‘yekti otashparastlik: olov kulti, suv kulti, qora toshga sig‘inish, tosh mabudalar va ajdodlar ruhiga sig‘inish mujassamlashgan o‘sha davr aholisining bosh diniy maskani vazifasini o‘tagan. Bu muqaddas diniy markaz qurilish an‘analarining, topinch ashyolarining qiyosiy tahlili, shuningdek, Qadimgi Sharq va Markaziy Osiyo diniy me‘morchilik an‘analari tahlili yuqorida bildirilgan fikrning asosli ekanligini tasdiqlaydi.

6. “Uchtepa-2” yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Farg‘ona vodiysining diniy tarixiga oid yangi nuqtai-nazar taqdim etildi. Yodgorlikda topilgan 50 dan ortiq altar-o‘choqlar va 20 dona tosh-altar qurilmalar Markaziy Osiyo mintaqasida otashparastlikning qadimiy an‘analari saqlanib qolganligidan dalolat beradi. Ushbu omillar ushbu hududning diniy an‘analari va madaniyatining o‘zaro ta’sirlashuv jarayonlarida muhim rol o‘ynaganligini isbotlaydi.

Muxtasar aytganda, tadqiqot natijalari Norin va Qoradaryo oralig‘i hududida diniy marosimlar va ibodat uchun mo‘ljallangan turli shakldagi tosh qurilmalar hamda ko‘plab altar-o‘choqlarning mavjudligini ko‘rsatib, Farg‘ona vodiysining diniy hamda madaniy an‘analari haqida yangi ma’lumotlarni berdi.

Tadqiqot natijalari xulosalaridan kelib chiqib, quyidagi **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqish nazarda tutildi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agantligi tomonidan respublika hududidagi kichik maydondagi arxeologiya yodgorliklarini ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirish konsepsiyasini ishlab chiqish va muzeylashtirishda Uchtepa-2 yodgorligi tajribasidan keng foydalanish;

2. Uchtepa-2 arxeologik yodgorligini muzeylashtirish jarayonida hom loydan ishlangan konstruksiyalarni kimyoviy moddalar orqali qotirish usulini respublikaning boshqa arxeologik yodgorliklarni konservatsiya va restavratsiya ishlarida keng qo‘llashni joriy etish;

3. Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida “Uchtepa-Buloq-mozor majmuasi: Uchtepa-2 arxeologik yodgorligi moddiy madaniyati tarixi” mavzusida ekspozitsiyasi va keng jamoatchilikka yoritish maqsadida teleko‘rsatuv tashkil etish;

4. Oliy ta’lim muassasalari ijtimoiy-gumanitar fakultetlari tarix, arxeologiya, etnologiya yo‘nalishi talabalari, magistrleri uchun “Farg‘ona vodiysi antik va ilk o‘rta asrlar yodgorliklari” mavzusidagi darslik hamda o‘quv qo‘llanmalarini yaratish;

5. Uchtepa-Buloq-mozor majmuasi: Uchtepa-2 arxeologik yodgorligi ochiq osmon ostidagi muzeyi va Farg‘ona vodiysining yirik arxeologik yodgorliklariga tursitik marshrutlarni tashkil qilish;

6. Farg‘ona vodiysining shimoli-sharqiy hududlari tadqiqoti bo‘yicha “Uchtepa-2 otashparastlik ibodatxonasi” monografiyasini tayyorlash va nashr etish maqsadga muvofiq.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ DSc.01/10.01.2024.TAR.169.01. ПРИ
САМАРКАНДСКОМ АРХЕОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ
ИМЕНИ Я.ГУЛЯМОВА**

НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ТУХТАСИНОВ ДИЛШОД ИНАМДЖАН УГЛИ

**УЧТЕПА-БУЛАКМАЗАРСКИЙ КОМПЛЕКС: ИСТОРИЧЕСКАЯ
ТОПОГРАФИЯ И СТРАТИГРАФИЯ АРХЕОЛОГИЧЕСКОГО
ПАМЯТНИКА УЧТЕПА-2**

07.00.06 – Археология (исторические науки)

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD)
по историческим наукам

Самарканд – 2025

Тема докторской диссертации (PhD) по историческим наукам зарегистрирована в ВАК при Министерстве высшего образования, науки и инноваций под номером B2023.2.PhD/Tar 1502.

Диссертация выполнена в Наманганском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (русском, узбекском, английском (резюме)) на сайте Научного совета (www.archaeology.uz) и на Информационно-образовательном портале Ziyonet (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Аскарлов Ахмадали Аскарлович
доктор исторических наук, академик

Официальные оппоненты :

Раимкулов Абдусабир Аззамович
доктор исторических наук

Кудратов Салижан Сулайманович
кандидат исторических наук

Ведущая организация :

Термизский государственный университет

Защита диссертации состоится « ____ » _____ 2025 г. в ____ часов на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней DSc.01/10.01.2024.Tar.169.01. при Самаркандском институте археологии имени Я.Гулямова (Адрес: 140151, город Самарканд, улица Вахида Абдуллаева, дом 3. Тел./факс: (99866) 232-27-75).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского института археологии имени Я.Гулямова (зарегистрирована за № ____). (Адрес: 140151, город Самарканд, улица Вахида Абдуллаева, дом 3. Тел./факс: (99866) 232-27-75).

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2025 года.
(реестр протокола рассылки № ____ от « ____ » _____ 2025 года).

Т. Ш. Ширинов

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, профессор

А. Н. Холматов

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по историческим наукам (PhD)

Б. Х. Матбабаев

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Процессы глобализации, происходящие в мире, еще раз доказывают, что наука является основным фактором развития человечества. Сохранение памятников историко-культурного наследия, передача их будущему поколению является одной из главных задач в мире. В этой связи следует отметить деятельность таких международных организаций, как ЮНЕСКО, ИКОМОС (Международный совет по сохранению памятников и достопримечательностей), ИКОМ (Международный совет музеев). В настоящее время большое внимание уделяется изучению, консервации и реставрации памятников истории и культуры, а также их использованию в туристических целях. В современной археологии важную роль играют новые методы исследования, научные исследования проводятся с помощью сканирования поверхности (GeoRadar), фотографирования из космоса и с земли, высокоточных цифровых измерительных приборов.

Центральная Азия является одним из богатейших регионов, где формировались и распространялись различные культуры во все периоды истории. В знаменитых научных центрах, проводящих исследования по истории этого региона, наравне с изучением истории античности, раннего средневековья и материальной культуры большое внимание уделяется определению исторической топографии историко-культурных регионов, городских и сельских поселений на их территории. При этом большое значение имеет сравнительный анализ археологических и письменных источников, а также применение современных методов исследования, в том числе с использованием методов ГИС¹, изучение таких вопросов, как границы регионов, локализация городов и сельских поселений.

За годы независимости в нашей стране было проведено немало практических работ по коренному совершенствованию археологических исследований, совершенствованию методов и методик научных исследований, сохранению богатого многовекового материально-культурного наследия нашего народа, изучению древней материальной культуры с помощью современных методов исследования естествознания и широкому внедрению их в археологические исследования. Междуречье Нарына и Карадарьи², расположенное на северо-востоке Ферганской долины, является одним из центров древней цивилизации, внесшим большой вклад в развитие общечеловеческих ценностей в Центральной Азии, и его развитие было связано с прошлым народов этого региона. Исходя из этого раскрытие

¹ Геоинформационная система — это обобщенная программная система под управлением специалистов и аналитиков, основными задачами которой являются сбор, хранение, управление, анализ, моделирование и описание геопространственных данных природы и социальных явлений с помощью специальных инструментов.

² Среди арабских историков, впервые упоминающих эту землю в исторических источниках, Истахри пишет «Миян Рузан», а Мукаддаси — «Миянрудийя». Великий востоковед В.В. Бартольд, читавший и анализировавший в подлиннике труды арабских историков и географов, пишет «Миян-Рудан». В данном исследовании, следуя по стопам В.В. Бартольда, мы сочли уместным написать этот географический термин как Миян-Рудан, т.е. «Миён-Рудон» в узбекском произношении.

исторической топографии и стратиграфии, вопросов материальной культуры и культурной жизни памятника Учтепа-2 в составе Учтепа-Булакмазарского археологического комплекса, который считается одним из центров междуречья Нарына и Карадарьи, определяет актуальность исследования.

